جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 20-dekabr
№ 52(52)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OG‘IR QOG‘OZ ZARGARI




“...Asqad Muxtor kitoblarini bot-bot varaqlab turaman. “Tug‘ilish”, “Davr mening taqdirimda”, “Bo‘ronlarda bordek halovat”, “Chinor”, “Buxoroning jin ko‘chalari”, “Jar yoqasida chaqmoq”... Miqyos va teranlik, mahorat da’vosi emas, asl mahorat namunalari! Yaqinda “Amu” romanini yana qo‘lga oldim. O‘sha davr siyosiy mavzularida yozilgan, adib ijodida birmuncha kampisandroq hisoblangan shu asarni qayta o‘qib, hayratga tushdim...”

(6-sahifada o‘qing).

TAQDIMOT

YANGI O‘ZBEKISTON ASOSCHISI



Boku shahridagi Ozarbayjon Milliy kutubxonasida “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Har jihatdan yuqori darajada tashkil etilgan tadbirda Ozarbayjon parlamenti vakillari, taniqli shoir va yozuvchilar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati hamda yurtimiz delegatsiyasi a’zolari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Boku shahridagi Ozarbayjon Milliy kutubxonasida “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Har jihatdan yuqori darajada tashkil etilgan tadbirda Ozarbayjon parlamenti vakillari, taniqli shoir va yozuvchilar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati hamda yurtimiz delegatsiyasi a’zolari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ushbu kitob O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi raisi, taniqli siyosatshunos, senator Qudratilla Rafiqovning “Mening Prezidentim” va “Millatparvar” kitoblari asosida ozarbayjonlik taniqli ijodkor Akif Bag‘irov hamda adabiyotshunos Yashar Qosim tomonidan tayyorlangan.

Taqdimot avvalida bir qator ozarbayjonlik taniqli siyosatchi va ziyolilar bilan suhbat qurish imkoniga ega bo‘ldik. Ular ushbu kitob taqdimotining Bokuda o‘tkazilayotgani ham xalqlarimizning bir-biriga yaqinligi, o‘zaro do‘stlik rishtalari mustahkamlanib borayotganidan dalolat ekanini alohida ta’kidlashdi.

– “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobi tarjimasiga katta mas’uliyat bilan yondashdik. Bu jarayonda har bir so‘z ustida maslahatlashdik, – deydi Yashar Qosim. – Biz Qudratilla Rafiqov kitoblarining o‘ziga xos tili va uslubini saqlab qolishga harakat qildik. Ozarbayjonlik o‘quvchilar mazkur kitob orqali Yangi O‘zbekistonni yanada yaqinroq bilishi, uning asoschisi va bunyodkori bo‘lgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vatan va Millat istiqboli yo‘lida amalga oshirayotgan ishlari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishi mumkin.

(Davomi 2-sahifada).

FAN RAVNAQI



“RAQAMLAR OLAMIGA ASIRMAN”

Fanlar malikasi hisoblangan matematika hamma sohaga bevosita va bilvosita daxldor. Kimdir matematika bilan boshini og‘ritgisi kelmas, yana birov uni o‘ta qiyin fan deb hisoblar, lekin hech kim undan xoli yashay olmaydi. Chunki hayotimizning o‘zi o‘lchov-u hisob-kitoblardan iborat. O‘n sakkiz ming olam matematik qonunlar bilan sobit turibdi. Uni koinot tili desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. She’rda bo‘g‘inlar soni, musiqada yetti nota almashinuvi natijasida kuy yaralishida ham matematika bor.

Bugungi suhbatdoshimiz fan va texnika yo‘nalishida I darajali Davlat mukofoti laureati, fizika-matematika fanlari doktori, professor, TWAS Butunjahon fanlar akademiyasi a’zosi Bahrom Omirov. U qator xalqaro mukofotlar sovrindori hamdir. Amerika va O‘zbekiston matematika jamiyati a’zosi. Yuzdan ziyod maqolalari dunyoning nufuzli nashrlarida chop etilgan. Hozirda u Xitoydagi dunyoning top 300 taligiga kiruvchi Harbin texnologiya institutida professor bo‘lib ishlayapti.

– Matematika – bir qarashda aniq, bir qarashda sirli fan. Bu fan olamida sizni hayratlantirgan narsa nima?

– Bilasizmi, bu olamning o‘ziga yarasha jazbasi, ohanrabosi bor. Raqamlar dunyosiga bir kirib qoldingizmi, tamom, ular sizni shunday domiga tortib ketadiki, chiqib ketishingiz amrimahol. Shunaqa chiroyli, qiziqarli misollar borki, yechganing sari maza qilasan kishi. Bunday olib qarasak, biror teoremani isbotlay olsang, boshqalar his etmagan narsani his qilganday, ular anglab yetmagan haqiqatning tagiga yetganday bo‘lasan, zo‘r-ku.

Bir holatni eslab o‘tmoqchi edim, bundan ancha yil burun Fransiyada ilmiy safardaligimda, o‘sha yerlik hamkasblar qiziq misolni ko‘rsatib, “Shuni yecha olasizmi?” deb so‘rab qolishdi. “Harakat qilaman”, deb so‘z berdim. Yechimni topishga sho‘ng‘ib ketdim, ikki yil deganda topdim ham. Endi shu jumboqning javobini topganimda ko‘nglimdan kechgan hissiyotlarni sizga ta’riflab berolmayman. Ilm shunday narsaki, bir yil, ikki yil azoblanasan, tunni tongga ulaysan, yegan-ichganingda halovat bo‘lmaydi, so‘ng yechim topiladi, uning ta’sirida bir oy osmonda uchib yurasan va keyin yana boshqatdan o‘zingni o‘sha shirin azobga tashlaysan.

Bir ishni boshlab, yechimini topgunimcha sutkasiga 16 soatlab ishlagan paytlarim bo‘lgan, lekin hech charchoq sezmaganman. Aspirant, doktorant shogirdlarim bilan shug‘ullanayotganimizda go‘zal, ayricha misollarni tanlashga harakat qilamiz. Garchi, adabiyotchi bo‘lmasak-da, “jozibador raqamlar”, “g‘aroyib misollar”, “qoyilmaqom natija” degan iboralarni qo‘llaymiz. Masalan, shogirdimga savolim bo‘lsa, “Qani, fikringni eshitaman”, deb emas, “Fikrlaring parvozini namoyish et”, deya murojaat qilaman.

U kutganimdek javob bera olmasa, juda pastlab uchyapsan, meni hayron qoldira olmading, deyman.

(Davomi 2-sahifada).

SUHBAT

“JADIDLAR MEROSIGA MEHRIM O‘ZGACHA”

Yaponiyalik taniqli jadidshunos olim Hisao Komatsu bilan suhbat



– O‘zbek adabiy-ilmiy muhiti, xususan, jadid adabiyoti tadqiqotchilariga Hisao Komatsu ismi sharifi yaxshi tanish. Siz o‘tgan asrning 20-yillarida o‘lkamizda hukm surgan adabiy-madaniy muhit hamda vaqtli matbuot rivoji ustida jiddiy tadqiqotlar olib borgansiz.

Yaponiyada o‘zbek adabiyotining shunday kuyunchak tadqiqotchi va targ‘ibotchisi borligidan juda xursandmiz. Aytingchi, siz o‘zbek tili va adabiyotini qachon o‘rgana boshlagansiz? Biznng adabiyotimizga mehr-muhabbatingiz sabablarini qanday izohlaysiz?

– Men haqimdagi samimiy fikrlaringizdan minnatdorman. Aslida, Yaponiyada o‘zbek madaniyati va ma’rifiy merosiga qiziqadigan olimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, professor Eyje Mano “Boburnoma” asari bilan bog‘liq tadqiqotlari bilan yaxshi tanilgan.

O‘zimga kelsak, universitetda o‘qib yurgan paytlarimdayoq O‘rta Osiyo tarixini o‘rgana boshladim. Bizda avvaldan Yaponiyada Xitoy tarixi bo‘yicha juda yaxshi tadqiqotlar olib borilgani holda, O‘rta Osiyo tarixi, xususan, bu hududning XIX asrdan keyingi hayoti umuman o‘rganilmagan edi.

(Davomi 7-sahifada).

IBRAT

YOSHLARGA YELKA TUTGAN USTOZ



Bugunning muammolari ko‘p. Lekin ertaning muammolari yanayam ko‘p bo‘ladi. Bu – hayot qonuni. Unga qarshi borib bo‘lmaydi. Biroq yurtimizda fozil jamiyat qurmoqni niyat qilib, shu yo‘lda katta islohotlar boshlagan ekanmiz, yana bir juda oddiy haqiqatni ham tan olishimiz darkor. Ya’ni, ertaning muammolariga biz – bugunning odamlari emas, kelajak avlodlar duch kelishini hisobga olib, yosh avlodni kelajakka hozirdan tayyorlashni yo‘lga qo‘yishimiz shart.

(Davomi 2-sahifada).

ONAJONIM – TABIAT



Taniqli ekojurnalist Nargis Qosimova bilan suhbat

– Nargis opa, keling, suhbatimizni ekojurnalistika sohasiga kirib kelishingizdan boshlaymiz. Ayting-chi, nega aynan shu sohani tanlagansiz va ekojurnalistikani bugungi kun uchun qanchalik muhim deb bilasiz?

– Bolaligimdan uy hayvonlarini, qushlar va daraxtlarni juda yaxshi ko‘raman. Bir men emas, oila a’zolarimizning hammasi jonivorparvar edi. Biz ko‘chada jarohatlangan it, mushuk bormi, yoki qanotiga nimadir bo‘lgan qush bormi, uyga ko‘tarib kelardik va travmatolog shifokor bo‘lmish otam ularni davolardi. Ana shu jonivorlarning aksariyati bizning hovlimizda yashab qolardi. Uyimizga kelgan odam o‘zini hayvonot bog‘iga tushib qolganday his qilardi.

Men veterinar bo‘lmoqchi edim. Lekin otam bu kasbni tanlashimga ro‘yxushlik bermadi. Shundan so‘ng jurnalistika sohasini tanladim.

(Davomi 5-sahifada).

KUN MAVZUSI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning maktablarda musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanlarini o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha qabul qilgan qarorlari sohada tub islohotlarni boshlab berdi.

Muxbirimiz bu borada Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari Farhod Boqiyev bilan suhbatlashdi.

TARBIYANING OLTIN QOIDALARI

– Qabul qilingan qarorlarda uch fanga alohida e’tibor qaratildi. Bunga zarurat nimada edi?

– Albatta, bu bejiz emas. Bir qaraganda bu uch fanning o‘zaro aloqasi kamdek. Lekin ularning “ichiga” kirsak, qanchalik bir-biriga payvand ekanini ko‘ramiz. Musiqa qalbga, jismoniy tarbiya badanga, harbiy ta’lim ruhga qudrat beradi. Ular bir-birini taqozo qiladi.

Arastu “Ma’lumki, musiqa axloqqa ta’sir qiladi. Shunday ekan, uni, albatta, yoshlarni tarbiyalovchi fanlar ro‘yxatiga kiritish lozim”, degan edi. Bilasiz, yoshlar – har qanday mamlakatning ertasi, kuch-qudrati, ishongan tog‘i, yashnagan bog‘i. Ular qoruvli, yovqur, jismonan baquvvat, ruhan va ma’nan sog‘lom, bilimli, jasur bo‘lsa, el-yurtning kelajagi yorug‘ va farovon bo‘ladi.

Bugun dunyo shiddat bilan globallashmoqda. Bunday sharoitda yoshlarni tarbiyalab, ularda yot g‘oyalarga immunitet paydo qilib, qalbini san’at, jismini mashq, ruhini vatanparvarlik hissi bilan to‘ldirish biz kattalarning zimmasida.

– Xalqda “Bolam toshbag‘ir bo‘lmasin, desang, uning qo‘liga dutor ber”, degan naql bor. Shuning ma’nosini o‘qituvchilarga qanday tushuntirgan bo‘lardingiz?

– Musiqaning inson ruhiga ta’sir qilishi haqida Abu Rayhon Beruniy, Faxriddin Ar-Roziy, Alisher Navoiy va boshqalar ko‘p va xo‘b aytishgan. Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqani bola ruhiyatiga ta’sir etuvchi samarali vositalardan biri, deb bilgan.

(Davomi 3-sahifada).

YANGI O‘ZBEKISTON ASOSCHISI



Boshlanishi 1-sahifada.

Taqdimotni Ozarbayjon Matbuot kengashi raisi Rashad Mejid boshqardi. Anjumanda Kavkaz musulmonlari idorasi raisi Ollohshukur Poshshozoda, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi raisi Anar, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi prezidenti Isa Habibbeyli, mamlakatimizning Ozarbayjondagi favqulodda va muxtor elchisi Bahrom Ashrafxonov, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, taniqli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad, “Ishonch” gazetasi bosh muharriri Husan Ermatov va boshqalar qardosh ozar xalqida katta qiziqish uyg‘otgan mazkur kitob xususida so‘z yuritdilar.

“Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobidan o‘rin olgan turli mavzudagi tahliliy ocherklar va qiziqarli esselarda davlatimiz rahbari boshchiligida yurtimizda amalga oshirilayotgan olamshumul o‘zgarish va yangilanishlar, jumladan, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohani yaxshilash va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash kabi masalalar yoritilgani alohida ta’kidlandi.

Chindan ham ushbu kitob Yangi O‘zbekistonda kechayotgan islohotlariga befarq bo‘lmagan har bir kishining yurtimiz haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qilishi shubhasiz.

Tadbir yakunida “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobi tarjimonlarining ikki davlat o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy aloqalarni mustahkamlashga qo‘shayotgan hissasi e’tirof etilib, ular munosib taqdirlandi.

Taqdimot ishtirokchilari Ozarbayjon Milliy kutubxonasida tashkil etilgan O‘zbekiston burchagidagi adabiyotlar bilan yaqindan tanishdilar.

Xolmurod SALIMOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi v.b.

Boku shahri

YOSHLARGA YELKA TUTGAN USTOZ

Boshlanishi 1-sahifada.



Insonning kelajakni o‘ylab oldinga qo‘yadigan eng katta va to‘g‘ri qadami farzandlariga kuchli bilim va to‘g‘ri tarbiya berishdir, degan aksioma bor. Shu fikrni davlatga, jamiyatga nisbatan ham tatbiq qilsa bo‘ladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni kuchli bilim va milliy mentalitetimizga mos tarbiya bilan qurollantirsak, jamiyatimizning ertangi kunidan bexavotir bo‘lamiz.

Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ixtisoslashgan Mirzo Ulug‘bek jamg‘armasi Uchinchi Renessans ostonasida turgan O‘zbekistonning shu asosiy ehtiyojiga javob tarzida tashkil etilgan. Jamg‘armaning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarning muhim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularni ilmiy-texnik, innovatsion faoliyatga keng jalb qilishdan iborat. Shu asnoda chekka hududlarda istiqomat qilayotgan yigit-qizlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirib, ularning innovatsion g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etishga ko‘maklashish, pirovard natijada iqtidorli yoshlar uchun ijtimoiy lift vazifasini o‘tashga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Soddaroq aytganda, mazkur jamg‘arma yoshlarning ko‘nglini o‘stirish va ularni qarshisida hamma yo‘llar ochiq ekaniga ishontirish uchun tashkil etilgan. Jamg‘arma yoshlarga ham moddiy, ham ma’naviy tirgak vazifasini o‘taydi. Joriy yilda o‘tkazilgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” tanlovida nufuzli komissiya tomonidan tumanlarning har biridan 5 nafardan, viloyat bosqichida har bir viloyatdan 20 nafardan hamda respublika bosqichida 100 nafar, jami mingga yaqin g‘olib aniqlandi. Ularning barchasi moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilib, sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Shu tariqa eng innovatsion loyiha va g‘oya mualliflari kashf etilib, ularga amaliy yordam ko‘rsatildi. Muhimi, yoshlar yolg‘iz emasligini, harakat qilsa, ortida qo‘llovchilari borligini his qilishdi, shunga ishonch hosil qilishdi.

Ulug‘bek jamg‘armasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Toshkent shahridagi Inha universiteti hamkorligida zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida axborot texnologiyalari sohasida “Mirzo Ulug‘bek vorislari” deb nomlangan tayyorlov o‘quv kurslari tashkil etilgani ham yoshlarga yaratilgan yana bir imkoniyat o‘laroq qabul qilinmoqda.

Kezi kelganda olis hududlardagi maktab o‘quvchilarining bilimini yanada mustahkamlash maqsadida “Mirzo Ulug‘bek” onlayn maktablari tashkil etilgani, ularda mamlakatimizning kimyo, biologiya, ingliz tili va matematika fanlaridan eng kuchli mutaxassis va olimlari onlayn dars berayotganini ham alohida qayd etish lozim.

Jamg‘arma tashkilotchiligi va shafeligida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekistonga qanot bo‘laylik” mavzusidagi insholar tanlovi, “Havaskor zakovatchilar” intellektual musobaqasi hamda yangi tashkil etilgan “Taraqqiyot” ilmiy-amaliy jurnalining faoliyati ham mamlakatning kelajagini ta’min etadigan yosh iste’dodlarni kashf etishga yo‘naltirilgan.

Bu kabi kelajakni ko‘zlagan ishlar boshida turgan kishi – katta bilim va boy hayotiy tajribaga ega donishmand oqsoqollardan biri sifatida tanilgan Oqil Umrzoqovich Salimovni juda ko‘pchilik o‘ziga ustoz deb biladi. Yoshi to‘qsondan o‘tib, yuzni qoralagan damlarda ham jonining tinchini emas, el-yurtning kelajagini o‘ylab yashayotgan va ishlayotgan bu tabarruk inson shu kunlarda yoshlarga qo‘shilib yana bir yoshga ulg‘aydim, deb turibdi. Shu o‘rinda u kishiga barcha shogirdlarining ezgu tilaklarini yetkazish barobarida, elga kamarbasta umringiz ziyoda bo‘lsin, muhtaram ustoz, deymiz.

Musulmon NAMOZ

“RAQAMLAR OLAMIGA ASIRMAN”

Boshlanishi 1-sahifada.

– Umuman, matematikning fikrlash tarzi qanday bo‘lishi kerak?

– Abstrakt fikrlashi lozim. Masalan, mening xotiram yaxshi emas, formulalar, teoremalarni eslab qolishim qiyin. Biror misolning yechimini topishga kirishganimda natija qanday bo‘lishini oldindan tasavvur ham qilolmayman, ammo qalam olib, qog‘oz bilan yuzma-yuz qolishim bilan beixtiyor uni yechish usullari xayolimga kelaveradi.

Umuman, matematik juda keng doirada fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. U faqatgina misol-masala yechib o‘tiraversa, shuning ichida o‘ralashib, hayotdan ham orqada qolib ketadi. U badiiy adabiyotlarni ham o‘qishi, san’atni yaxshi tushunishi, sport bilan muntazam shug‘ullanishi shart, hatto, matematiklar orasida juda mohir sozandalarni bilaman. 12 yoshimdan 17 yoshimgacha bir kunda o‘rtacha 100 betdan kitob o‘qirdim. Universititetda o‘qib yurgan paytlarimda kuniga o‘rtacha 20 betdan o‘qishga vaqt topganman.

Otam qanday qilib meni kitob o‘qishga qiziqtirganini aytaymi? “Har bir o‘qib bo‘lgan kitobing uchun bir so‘mdan pul beraman”, degan. Ko‘proq pul undirish maqsadida hamma o‘rtoqlarim ko‘chada maza qilib o‘ynayotgan paytda men 20 ta kitobni birpasda o‘qib chiqqanman (ularning ichida yupqagina kitoblar ham bo‘lgan, albatta). Keyin borib otamdan va’dasining ustidan chiqishini, menga 20 so‘m berishini so‘radim.

Tabiiy, otam bir so‘m ham bermagan. “Bu kitoblarning hammasi meniki, aslida, sen menga pul to‘lashing kerak”, degan. To‘g‘ri, o‘shanda biroz ranjiganman, ammo kitobga oshnoligim shundan boshlangan. Esimda, akam ikkalamiz kitoblarni talashib o‘qirdik. U bitta kitobni o‘qishga kirishsa, mutolaa vaqti tugaguncha unga topshirilgan ishlarni ham men bajarardim, toki, akam tezda o‘qib tugatsin-u, kitobni menga bersin deb. Men o‘qiyotganimda esa akam uy yumushlarini bajarardi.

Shunday qilib jahon, rus adabiyoti klassiklari, Servantes, Gyugo, Xeminguey, Tolstoy, Dostoyevskiy va o‘zimizning adiblarning kitoblarini berilib



mutolaa qilganman. Bugun shuni anglab yetdimki, o‘sha o‘qigan kitoblarim hayot yo‘limda har qadamda menga asqatyapti. Masalan, Viktor Gyugoning “Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi” romanini o‘qiganimda, yozuvchining ibodatxonani juda sinchkovlik bilan tasvirlashi menga zerikarli tuyulgan, o‘zingiz bilasiz, yosh o‘quvchi asardagi voqealar rivojiga ko‘proq qiziqadi. Yillar o‘tib, Fransiyaga borganimda Bibi Maryam ibodatxonasini ziyorat qilish nasib etdi. O‘sha bolalagimda o‘qiganlarimni bir-bir xotiramdan o‘tkaza boshladim va bu yerga oldin ham qachondir kelgandek bo‘laverdim. Yoki bo‘lmasa, Servantesning yurti bo‘lmish Ispaniyaga borganimda Don Kixotning sarguzashtlari ko‘z oldimdan o‘tavergan.

Hozir elektron kitoblarni o‘qish odatga aylanyapti. Lekin menga bosma kitob mutolaasining zavqini elektron kitoblar bera olmaydi. Shogirdlarimga ham doim badiiy kitob o‘qishni maslahat beraman.

– Bahrom aka, bundan ancha yillar oldin siz bilan suhbatlashganimizda xorijga takliflar bo‘lsa, butunlay ketasizmi, degan savolimga, “Pul hammaga kerak, ammo odam betob onasi yo ayolini boshqa sog‘iga almashtirmaydi-ku, uning salomatligini tiklashga harakat qiladi, tuzalishi uchun kurashadi”, degan javobni bergan edingiz. Bugungi kunda Xitoydagi nufuzli ilmiy dargohda faoliyat olib borayotgan ekansiz. Hozir ham o‘sha fikringizda sobitmisiz yoki?..

– Insonda kasbiga bo‘lgan muhabbat, u bilan seni bog‘lab turadigan rishtalar borki, uni osongina uzib bo‘lmaydi. Vatanga muhabbat to‘g‘risida ham shunday fikrdaman. Garchi Xitoyda ishlayotgan bo‘lsam-da, yurtimdagi ish joyim – Matematika institutining ilmiy xodimi hisoblanaman. Bir yilda to‘rt-besh oy O‘zbekistonda ishlayman. Ustozimiz Shavkat Ayupov rahbarligidagi grantda qatnashyapman. Doktorantim bor, u bilan ishlayman.

2024-yilda to‘rtta xalqaro konferensiya o‘tkazdik. Shulardan bittasini sentyabr oyida o‘zim tashkillashtirdim. Anjumanda ko‘pgina rivojlangan davlatlar va O‘zbekistondan taniqli olimlar qatnashdi. Institutimiz bilan doim aloqadaman, ko‘pgina olimlarimizni bu yerga taklif qildim. Nasib etsa, 2025-yilda ham o‘zbek olimlari bilan bir qancha loyihalarni ilmiy hamkorlikda amalga oshirishni rejalashtiryapmiz. Umuman olganda, men doim Matematika instituti bilan aloqadaman.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ilm-fan sohalarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarni xorijiy hamkasblarimiz ham e’tirof etishyapti. Biz bundan faqat faxrlanamiz va shunga javoban Vatanimiz ravnaqi, milliy ilmimiz istiqboliga hissa qo‘shishga harakat qilamiz. Qolaversa, bizning odamlarga o‘xshagan tanti, samimiy, bag‘rikeng kishilarni qayerdan topasiz! Bizchalik bir-biriga mehr-oqibatli, jigarparvar xalq dunyoda kam topiladi. Bir qo‘shningiz, tanishingiz ko‘rinmay qolsa, so‘rab-surishtirasiz, holidan xabar olasiz, vaqtingiz juda tig‘iz bo‘lsa, juda bo‘lmaganda, telefon orqali hol so‘raysiz. Oshna-og‘aynilar bilan yig‘ilib o‘tirasiz, qarindosh-urug‘ingiznikiga mehmonga borasiz, yaxshi-yomon kunida yonida turasiz. Xorijda esa bunday emas. Uning hayoti faqat o‘ziniki, topish-tutishi yaxshi bo‘lishiga qaramay, faqat o‘ziga sarflaydi, o‘zi uchun yashaydi. Shuning uchun men bu yerda butunlay qolish niyatim yo‘q va albatta Vatanimga qaytaman.

Shahnoza ROFIYEVA suhbatlashdi.

MEDIA-FORUM

Poytaxtimizda Turkiy davlatlar tashkiloti media forumi bo‘lib o‘tdi. Forumning birinchi qismida “Axborot sohasida TDTga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollari” yuzasidan ma’ruzalar taqdim etildi.

AXBOROT SOHASI MUTASADDILARINI BIRLASHTIRGAN HAMKORLIK

TDT Kotibiyati tadqiqot eksperti Almagul Serkbayeva o‘z nutqida media va axborot sohasidagi hamkorlikni ko‘p qirrali munosabatlar doirasida asosiy yo‘nalish sifatida rivojlantirish, axborot sohasidagi vazirlar yig‘ilishlarini, Ishchi guruh majlislarini har yili o‘tkazish, forumlar tashkil etish, seminarlar, o‘quv dasturlari va tajriba almashish tadbirlari orqali hamkorlikni kengaytirish borasida to‘xtaldi.

Qirg‘iz Respublikasi madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vazirligi boshqarma boshlig‘i Salqin Sarnoyeva Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar jurnalistlari assotsiatsiyasi Nizomi to‘g‘risida taqdimot qildi. Nizomda Assotsiatsiyaga a’zolik, uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlar, Assotsiatsiya tuzilmasi va boshqaruvi hamda boshqa masalalar qanday belgilanishi to‘g‘risida ma’lumot berdi.

– Markaziy Osiyodagi tendensiyalar bilan tanish bo‘lganlarning aksariyati mintaqamiz umumiy muammolar sari birlashish va murosaga tayyorgarlik borasida namuna ko‘rsatganini yaxshi biladi, – dedi O‘zbekiston tashqi ishlar vazirligi axborot xizmati rahbari Ahror Burhonov. – Bu haqiqatan ham barchaning farovonligini ta’minlovchi noyob hodisadir. Ushbu o‘zgarishlar haqida eng aniq ma’lumotlarni yetkazish uchun TDTga a’zo davlatlardagi ommaviy axborot vositalarining sa’y-harakatlarini birlashtirish muhimdir.

Forumning panel yig‘ilishida so‘zga chiqqanlar dezinformatsiyaga qarshi kurashish borasida erishilgan natija va yutuqlar, mavjud kamchiliklar, muammolar, ularga samarali yechim topishda hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha taqdimotlar qildi.

Raqamli asrda dipfeyk, kiberjinoyat va boshqa shakllarda tobora murakkablashib borayotgan dezinformatsion oqimlarga qarshi kurashish masalasi har qachongidanda dolzarbligi, aholi mediasavodxonligini oshirish samarali yechimlardan biri ekanligi ta’kidlandi.

Xolis, dalillarga asoslangan, ishonchli axborotni tezkor yetkazishda ijtimoiy tarmoqlardan, sun’iy intellektdan oqilona va unumli foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar berildi.

– Dezinformatsiya oqibatlari ommaviy axborot vositalari doirasidan ancha chetga chiqadi, – dedi Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi Vasiylik kengashi raisi Akromjon Fozilov. – U an’anaviy ommaviy axborot vositalari va institutlarga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadi, ijtimoiy nizolarni keltirib chiqaradi, jamiyatning qutblanishini kuchaytiradi va odamlarning siyosat, sog‘liqni saqlash va ekologiya kabi muhim sohalarda asosli qarorlar qabul qilishiga to‘sqinlik qiladi.

Nazokat USMONOVA,
O‘zA muxbiri

TARBIYANING OLTIN QOIDALARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ular musiqaning komil insonni shakllantirish bobidagi imkoniyatlarini ochib berishgan. Bu buyuk meros hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Aksincha, biz uchun mo‘tabar milliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa bolalarga kuy, ohang tovlanishlari, turli xil jaranglar vositasida borliqni anglatadi. Musiqa – tovushlarda ochiladigan his-tuyg‘ular to‘plami, guldastasi. Musiqa inson qalbiga ta’sir qilish kuchiga ko‘ra yetakchi san’atdir.

– Prezidentimiz musiqa fani o‘qituvchilari bilan bog‘liq muammolar haqida ham gapirib, ularning yechimi bo‘yicha ko‘rsatmalar bergan edi.

– Ta’lim islohoti birinchi navbatda bevosita o‘quvchi bilan ishlaydigan o‘qituvchiga bog‘liq. Prezidentimiz e’tiborni mana shu nozik, hassos va mashaqqatli pedagogik ishning o‘zagiga qaratdilar. Masalan, hozir respublikamiz bo‘yicha musiqa o‘qituvchilarining 21 foizi o‘rta maxsus ma’lumotga ega. Ya’ni, ular professional cholg‘uchi emas. Buning ustiga, musiqa o‘qituvchilarining malaka oshirish tizimida muammolar bor edi. Cholg‘u sirlarini yaxshi biladigan San’at va madaniyat instituti bitiruvchilari esa o‘qituvchilikka qabul qilinmasdi. Endi bunday oliy ta’lim muassasalarining musiqa yo‘nalishi bitiruvchilariga ham maktablarda ishlash uchun ruxsat berildi.

Bundan buyon musiqa o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati baholanib, malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu yo‘nalish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari, o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibini ishlab chiqishga kirishildi. Shuningdek, milliy sertifikat berish tizimi ham joriy qilinadi. Musiqa o‘qituvchisi milliy cholg‘u asboblaridan kamida bittasini ijro etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

– Maktablarda o‘qitilayotgan jismoniy tarbiya darsini isloh qilish zarurati haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz. Siz buning milliy, tarixiy, zamonaviy negizini nimalarda ko‘rasiz?

– Ilgari o‘g‘il va qiz bolalarning har faslga mos o‘yinlari bo‘lgan. Ana shu o‘yinlar orqali ularda kuch, iroda, mardlik, tirishqoqlik, chidamlilik kabi xislatlar tarbiyalangan. Bir qator arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar ham shundan guvohlik beradi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvonning o‘zaro bellashuvi tasvirlangan. Bu noyob topilma milliy kurash miloddan bir yarim ming yil avvalgi davrlarda ham bobolarimiz hayotining ajralmas qismi bo‘lganidan dalolat beradi. Alpomishning turli bahs va kurashlarda namoyon etgan qahramonliklari ham qadimda xalqimiz ommaviy sport orqali o‘z farzandlarini mard va jismonan baquvvat qilib tarbiyalaganiga misoldir.

Qizlar ham yigitlardan qolishmagan. “Alpomish” dostonida Barchinning or talashib qalmoq polvonlari bilan kurashga tushishi haqidagi epizod bor. Azaldan o‘zbek yigitining belbog‘i, qizining ro‘moli oddiy mato emas, balki mardlik, or-nomus, hayo, sadoqat, poklik ramzi sanalgan. Lafzida sobit yigitlar “belida belbog‘i bor” deb madh etilgan. Bugun milliy tarbiyamizning ana shu oltin qoidalari tiklanmoqda.

Mutaxassislarimiz o‘quvchi yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish yo‘llarini o‘rganib chiqdi. Ommaviy sport orqali o‘quvchilar salomatligini yaxshilash va jamoaviy birdamlik ruhini rivojlantirishning yangi imkoniyatlari ochildi. Atoqli nemis adibi Viktor Gyugo aytganidek, “Ruhiy matonat uchun jismoniy matonatni kuchaytirib turish kerak”.

Biz futbolni har bir maktabda ommalashtiryapmiz. Ushbu sport turi bolada jamoaviylik va birgalikda ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Voleybol, basketbol o‘yinlari ham o‘quvchilar uchun juda qiziqarli va foydali. Bular ham o‘smirlarda muvozanat va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Aql mashqi bo‘lgan shaxmat ham e’tiborimizdan chetda emas. Maktablarda stol tennisi musobaqalari, tennis bo‘yicha kichik turnirlar tashkil qilinmoqda. Bu, ayniqsa qizlar uchun qulay, mo‘tadil sport turi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich maktab sport klublari tashkil qilib, 22 ta olimpiya, 19 ta noolimpiya, 4 ta milliy sport turlarini o‘rgatish ko‘zda tutilgan. O‘qituvchilarni tayyorlash tizimi mana shu vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi.

– Bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi milliy g‘urur va jangovar ruhning yuksak darajasini talab qiladi. Bunda chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik fani oldiga qanday yangi vazifalar qo‘yilmoqda?

– Maktab o‘quvchilarini yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimini yaratish orqali o‘quvchi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqamiz. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida shu yo‘nalish bo‘yicha pedagoglar tayyorlashni tubdan o‘zgartirish, malaka talablari va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berilgani ayni muddao bo‘ldi.

Respublikamizda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimi “Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, faol hayotiy pozitsiya”, degan yangi, aniq g‘oyaviy tamoyilga asoslanadi. Bu tamoyil fanning ma’naviy-mafkuraviy o‘zagini, talabini belgilab berishi ko‘zda tutilgan. O‘quv dasturi va darsliklar shu yangi tamoyil asosida qayta ishlab chiqilmoqda. Ushbu fanning haftasiga ikki soatdan o‘qitilishi samaradorlikni keskin oshiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. Endi 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 15 yillik tarbiyasi 4 bosqichda, tartib bilan amalga oshiriladi. Bog‘cha tarbiyalanuvchilariga oila, Vatan, milliy qadriyatlar tanitiladi. Ikkinchi bosqichda (1–4-sinf) mustaqillik tushunchasi, davlat ramzlariga hurmat va intizom kabi hayotiy ko‘nikmalar; uchinchi bosqichda (5–9-sinf) huquqiy ong, milliy g‘urur, buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lish; va nihoyat, yuqori sinflarda (10-11-sinf) harbiy xizmatga qiziqish oshiriladi.

– Islohotlar doirasida “Jasorat maktablari” deb atalgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yangi modeli ishga tushishi ma’lum bo‘ldi. Bu modelning xususiyatlari nimada?

– Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimi bilan harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari orasida bevosita aloqa, hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi nazariya bilan amaliyotni birlashtiradi. Ya’ni, respublikadagi har bir tuman va shaharda bittadan “Jasorat maktablari” faoliyati yo‘lga qo‘yilib barcha umumta’lim maktablari uchun harbiy vatanparvarlik yo‘nalishida tayanch maktab vazifasini o‘taydi.

Vatanga muhabbat va harbiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi maxsus festivallar tashkil qilinadi. Milliy qadriyatlar, harbiylar haqida filmlar namoyishi, vatanparvarlik mavzusida musobaqalar o‘tkaziladi. O‘quvchilarni harbiy qismlarga ekskursiyaga olib boramiz.

Endi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasiga hamohang ravishda amalga oshiriladi. Yozgi ta’til davomida o‘quvchilar uchun maxsus harbiy-sport oromgohlari tashkil etiladi. Unda yoshlar harbiy hayotni o‘rganadi, maxsus ko‘nikma va jismoniy mashqlar bilan tanishadi.

Yoqubjon MENGZIYOYEV suhbatlashdi.





BUGUNNING NAFASI

ISLOHOTLAR QO‘NG‘IROTGA QO‘R BERDI

Mamlakatimizning eng yirik va eng olis Qo‘ng‘irot tumanini xalq orasida O‘zbekistonning “shimoliy darvozasi” deb aytishadi. Qo‘ng‘irot tumani hududi Ustyurt platosi hisobiga 7 million 600 ming gektardan ziyod. O‘zbekistonning Shimolga boradigan asosiy xalqaro yo‘li ham shu yerdan o‘tgan. Yurtda boshlangan islohotlar hudud aholisining kundalik turmushida o‘z natijalarini ko‘rsata boshlaganiga ancha bo‘ldi. Bugun bu yerda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlarni ko‘z ko‘rib, ko‘ngil quvonmasligi mumkin emas.



Qo‘ng‘irot shahridan Qozog‘iston bilan chegarasigacha masofa bor-yo‘g‘i 360 kilometr. Boshqa davlatlar bilan chegaradosh bo‘lishning o‘ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari bor. Masofa yaqinligi tufayli oyiga arzimas 200-300 dollar topish uchun ishlagani chiqib ketadiganlar ko‘p. Shu mahalgacha qo‘ng‘irotliklarning 80 foizi Qozog‘istonga yumush izlab ketardi. Natijada o‘zining yurtida bitmagan qancha ish qolib ketayotganini tasavvur qilib olavering. Mahalliy hokimiyat bu noxush vaziyatni o‘zgartirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rmoqda.

Xususan, Mang‘istovgacha bo‘lgan 240 kilometrlik yo‘lni betonlash ishlari boshlanganda, asosan mahalliy ishchilar jalb qilindi. Shuningdek, ishsizlarni ma’lumoti va mutaxassisligi, xohishiga ko‘ra ishga joylashtirish masalalarini ham asta-sekin hal etish boshlandi. Bu borada tuman aholisining ma’lumoti, mutaxassisligi va ishsizlik sababiga oid to‘liq axborot to‘plandi.

Albatta, kimga ish taklif qilsang, sanoat sohasida ishga joylashtirishni so‘raydi. To‘g‘ri, Qo‘ng‘irotda istiqlol yillari qurilgan juda katta kimyo kombinati bor. Biroq u aholi maskanlaridan ancha olisda – Ustyurt platosida joylashgan. Bu kombinat talabgorlarning hammasini ishga qabul qilolmaydi.

Biroq yangi ochilib, ishga tushirilayotgan tuz karyerlarida hali ishchilar uchun barcha sharoit yaratilgan emas. Yangi ishga kirganlar Ustyurtda – dala sharoitida yashashi kerak bo‘ladi. Ayniqsa, ishchi kuchiga muhtojlik sezilayotgan tuz karyeri yonida uy ham, biror dov-daraxt ham yo‘q. Odamlarning huvullagan kenglikka borib ishlagisi kelmaydi. Shuning uchun ish so‘raganlarning birovi qorovul bo‘laman desa, yana biri haydovchilik qilaman deydi, boshqasi farroshlikni so‘raydi.

Har kimga o‘zi so‘ragan ishni topish mushkul, biroq ish bilan ta’minlash muammosini manzilli tashkil qilsa, arzirli natijaga erishish mumkin. Shunda tuman mas’ullari Qo‘ng‘irotning hali ishga solinmagan boyliklariga e’tibor qaratishdi. Gap shundaki, Qo‘ng‘irotda tuz konlari ko‘p, ular qariyb 110 ming gektar maydonni egallab yotibdi. Tuz – qo‘ng‘irotliklarga Allohning ne’mati, qancha ko‘p kavlab olsangiz, joyi yana to‘laveradi. Tuz konlari bitmas-tuganmas xazina ekanini tushuntirib, undan kengroq foydalanish bo‘yicha mamlakat rahbariyatiga takliflar kiritildi.

Jumladan, “Borsa kelmas” konining yonida 50 gektar yerda kichik sanoat zonasi tashkil etish reja qilingan. Tadbirkor tuzni shu joyda qadoqlab, tayyor yoki yarim tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Bu reja amalga oshsa, Qo‘ng‘irotdagi kichik korxonalarda kamida uch barobarga o‘sish bo‘ladi. Shunda ham 110 ming gektar tuz konining atigi 10 foizidangina foydalaniladi. Qolgan 100 ming gektarni ham o‘zlashtirish va foydalanish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Bu boradagi takliflar hukumat tomonidan ma’qullangan. Tuz sanoati rivojlantirilsa, tuman iqtisodida juda katta o‘sish bo‘ladi. Ishsizlik ham sezilarli darajada barham topadi.

Tuman hududi juda bepoyon ekani tufayli, bu yerda ichki yo‘llar, xususan, ularning ko‘pi nochorligi masalasi ham aholining doimiy noroziligiga sabab bo‘layotgan edi. Muammoni yechish uchun avval uning ko‘lamini bilib olish kerak. Shu bois birinchi navbatda ichki yo‘llar xatlovdan o‘tkazildi – qayerni joriy ta’mirlash, qayerni asfaltlash kerak, qayerga tosh-shag‘al to‘ksa ham bo‘ladi, shular o‘rganib chiqildi. Eng avval 60 kilometr yo‘l tegishli qaror asosida tuzatildi.

– Mahallama-mahalla yurib, ko‘cha va yo‘llarni o‘lchab chiqdik, – deydi Qo‘ng‘irot tumani hokimining matbuot kotibi Guliston Qarajanova. – Hisob-kitobini aniqlashtirdik. Jami ichki yo‘llarimiz 733 kilometrni tashkil etdi, shundan 511 kilometri tuproq yo‘l bo‘lib chiqdi. Ichki yo‘llarning 70 foizi talabga javob bermas ekan. Bosqichma-bosqich deyarli barcha ko‘chalarni asfaltladik.

Shu yerda bir narsani aytib o‘tmasam bo‘lmaydi. Prezidentimizning tadbirkorlarni ko‘paytiraylik, ular har ishimizga kamarbasta bo‘ladi, degan gaplarida hikmat bor ekan. Tadbirkorlar bilan kengashlarimiz bor. Tadbirkorning vaqti nafaqat ularning o‘zlari, balki jamiyat uchun ham muhim. Tadbirkor tortinmay dardini ayta olishi kerak. Ana shunday kengashlarning birida 40 kilometr yo‘l masalasini o‘rtaga tashladik. “Biz yonilg‘iga ketadigan xarajatni ko‘taraylik. Siz bizga yordam bering”, dedik. Chunki qum-shag‘alni Qoratovdan olib kelish kerak. Qoratov esa bizdan qariyb 200 kilometr uzoqda joylashgan. Bir “KamAZ” shag‘al olib kelish to‘rt yarim million so‘mga tushar ekan. Baraka topishsin, bir ovozdan “muammo yo‘q, keragicha tashib beramiz” deyishdi. Birovi 20, boshqasi 50 bor qatnab, keltirib berishdi. 40 kilometr yo‘l tadbirkorlar himmati bilan yaxshilandi. Birortasi qo‘shimcha bir tiyin so‘ramadi. Yaqinda Qoraqalpog‘iston bo‘yicha ichki yo‘llarni yaxshilash uchun davlat byudjetidan ham mablag‘ ajratildi. Albatta, bundan Qo‘ng‘irotga ham ulush bor. Yana 156 kilometr yo‘limiz shu mablag‘dan ta’mirlanadi.

Matbuot kotibining tadbirkorlar himmatidan suyunganicha bor. Tuman markazidagi o‘n gektardan oshiq qarovsiz joy ham ularning madadi bilan katta bir bog‘ga aylandi. Sal avvalroq bu joyga bir nechta noqonuniy bino ham qurilib, bog‘ maydoni kichrayib ketgan ekan. Bitganlariga tegilmadi, lekin endi qurilish boshlayman, deb turganlar hokimiyatga chaqirilib, tushuntirish ishlari olib borildi. Tuman aholisi madaniy hordiq oladigan joy bo‘lishi kerakligi aytildi. Bog‘ maydoni qonuniy tartibda qaytarib olindi. Ammo tuprog‘ining tarkibi buzilgan, nihol qadab bo‘ladigan emas edi.

Yana tadbirkorlar yordamga keldi. 2000 reys unumdor tuproq keltirib to‘kildi. Qaytadan bog‘ tashkil qilindi. Bog‘ ichidagi Yoshlar sayilgohida o‘quv markazlari, hordiq chiqarish uchun yashil zonalar, umuman yoshlar uchun nima kerak bo‘lsa, hammasi tashkil etildi.

Bugun bu yerda zamonaviy Yoshlar markazi va uning yonida Ma’naviyat va ma’rifat markazining 52 ming jildlik katta kutubxonasi ishlab turibdi. Qolaversa, tadbirkor Islom Xudoyberdiyev tashabbusi bilan Yoshlar markazining ichida ham shinam kutubxona tashkil etildi. Bu yerga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘zbek va jahon adabiyotiga oid badiiy kitoblar sovg‘a qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, tashlandiq, qarovsiz bog‘ yoshlar uchun muhtasham mutolaa xiyoboniga aylanish arafasida.

Islohotlar faqat bandlik va obodonlashtirishdan iborat emas, albatta. Yaqindagina Qo‘ng‘irotda xususiy maktab qurilishi boshlangan edi, allaqachon ishga tushish arafasiga keldi. Temir yo‘llar tizimiga qarashli foydalanishga yaroqsiz holatga kelgan basseyn, futbol maydoni va sport zali jadal ta’mirlanmoqda.

Shu o‘rinda, tumanda bo‘layotgan o‘zgarishlar ayniqsa yoshlarni ilhomlantirib yuborganini alohida ta’kidlash kerakka o‘xshaydi. Xizmat safarim vaqti tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Muxtor Murtazoyev bir ibratli voqeani so‘zlab berdi:

– Sizga hali yigirmaga ham to‘lmagan bir yigitcha haqida gapirib bermoqchiman. U bilan tanishuvimiz juda qiziq bo‘lgan. Yoshlarga yer ajratish payti u bizni holjonimizga qo‘ymadi. Ozroq yer berdik. Pomidor ekib, o‘sha yili 80 million atrofida daromad topdi. Keyingi mavsumda kattaroq yer berdik. U bugun besh gektar yerda dehqonchilik qilib, oilasini boqyapti. Ro‘zg‘oridan ortgan daromadni jamlab, yengil avtomashina sotib oldi. Uyida parranda boqadi. Undan ham foyda ko‘rayotir. Hovlisining bir burchagida mo‘jazgina issiqxona qurgan. Yaqinda yoshlarga eksport-bop mahsulotlar yetishtirish uchun yana yer ajratganda, yosh dehqonlarga o‘sha yigitchani ustoz qilib qo‘ydik. Tomorqadan daromad topish bo‘yicha mahorat darslari o‘tyapti. Ikki yil ichida tuman yoshlarining lideri bo‘lib oldi. Kooperatsiya tashkil qilgan, uni ham o‘zi boshqaradi.



Tumanda, ijtimoiy himoya tizimi ham yangicha struktura asosida ishlayotgani tufayli aholini elektr energiya, gaz va suv bilan ta’minlash holati yaxshi tomonga keskin o‘zgardi. Qishloq va ovullarda istiqomat qiladigan 8 ming xonadonga suyuq gaz yetkazib berilmoqda, tuman markazi 100 foiz tabiiy gaz bilan ta’minlangan.

Tumanda ichimlik suvi bilan bog‘liq yechimini kutayotgan masalalar ham ko‘p edi. Tarmoqlar eskirgan, ta’mirtalab bo‘lib qolgandi. Mamlakat rahbarining qarori asosida Qo‘ng‘irot tumanidagi 22 ta mahallaga yangidan suv quvuri tortiladigan bo‘ldi. Bunga ketadigan mablag‘ esa Osiyo taraqqiyot banki tomonidan qoplanishi belgilangan.

Qo‘ng‘irotda 226 ta ko‘p qavatli uy bor. U boshqa tumanlardan ko‘p qavatli uylar soni ko‘pligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun kuz va qish oylariga tayyorgarlik bu yerda biroz qiyin kechadi. Sababi, bu uylarning ko‘pi eski. 39 ta buzilishi kerak bo‘lgan uyning 29 tasi Qo‘ng‘irot shahrida joylashgan. Shular navbati bilan buzilyapti. Uy egalarining xohishiga qarab, o‘ringa o‘rin yoki kompensatsiya puli berilmoqda. Eng olis hudud sanalgan Jasliqda ham 30 xonadonga mo‘ljallangan to‘rtta besh qavatli uy qurilishi boshlab yuborildi.


Xulosa qilib aytganda, mamlakat islohotini Qo‘ng‘irot timsolida kuzata turib, olib borilayotgan ishlar ko‘lami faqat va faqat xalq manfaatiga xizmat qilayotganiga yana bir marta amin bo‘ldik. Islohotlar “shimoliy darvoza”gacha yetibdi, deb o‘yladik.

Muhayyo PIRNAFASOVA

AKS SADO

NOSHIRNING DARDINI KIM ESHITADI?

yoxud “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” maqolasini o‘qib…



“Jadid”ga rahmat, ko‘ngildagi gapni ko‘taribdi. Muallif Ikrom Bo‘riboyevning “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” nomli tahliliy maqolasi yosh avlodning mutolaaga munosabati borasidagi tushkun xulosalarga dadil javob olish imkonini bergan. Ishonchim komilki, bu maqola men singari boshqa noshirlarni ham o‘yga solgani aniq. Mutolaa bilan kifoyalanish ham mumkin edi. Ammo, maqola bahona, ancha yillardan beri jamoatchilikning, mutasaddi tashkilotlar va noshirlarning e’tiboridan chetda qolayotgan, aslida sohadagi ko‘plab muammolarning bosh omillaridan biri bo‘lgan ayrim hollar xususida so‘zlash istagi g‘olib keldi…

YOSHLAR O‘QIMAYAPTIMI?

Albatta, o‘qiyapti. O‘qimayotgan bo‘lsa, mamlakatga kirib kelayotgan minglab tonna qog‘ozlarga hojat bo‘lmasdi. Kitob savdosi bilan shug‘ullanayotgan minglab do‘konlar allaqachon yopilib ketardi. E’tiroz o‘laroq aytish mumkin: unda nega kitoblarning adadi kamayib ketgan? Nima uchun nashriyotlar iqtisodiy tang ahvolga tushib qolmoqda? Bunga Ikrom Bo‘riboyevning maqolasida qisman ishora tarzida shunday javob bor: “Zangiota tumanidagi, xalq tili bilan aytganda, “Kanstovar bozori”ni hammamiz yaxshi bilamiz, lekin bu savdo maskanida, masalan, bir kunda qancha kitob sotiladi – buni bilmaymiz”.

Bog‘dan kelsa, tog‘dan keldi, demang. Ishonchni qoyim qiling: yoshlar o‘qiyapti, vassalom.

HAQLI E’TIROZLARGA JAVOBLAR

U holda kitoblarning adadi nega kamayib boryapti? Nima uchun nashriyotlar birin-ketin iqtisodiy tang ahvolga tushib qolmoqda?

Gazeta, jurnal, internet va teleradiojurnalistika sohasidagi faoliyat qatorida o‘n yilga yaqin muddat mobaynida aynan noshirlik bilan shug‘ullangan, bu sohaning baland-pastiga bir qur ko‘z tashlash nasib qilgan noshir sifatida quruq gaplardan tiyilib, aniq misollar bilan gapira qolay.

Yanglishmasam, 2009-yili benazir adib Rasul Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” badiasini ilk marotaba yaxlit to‘plam holida nashr etdik. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, shoir Asror Mo‘minning tarjimachilik borasidagi bir necha yillik mashaqqatli mehnati samarasi edi bu. Kitob, katta tavakkaldan tiyilgan holda, ming nusxada chop etildi. Abdulla Oripov so‘zboshisi bilan nashr etilgan kitobni adabiy jamoatchilik katta mamnunlik bilan qarshiladi, hamkasblardan ham iliq so‘zlar eshitdik. Ammo moliyaviy jihatdan quvonchimiz uzoqqa cho‘zilmadi.

Kitob savdosini tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi mutasaddilarimiz jami adadni, sotilsa to‘lash sharti bilan, o‘sha Zangiota tumanidagi “Kanstovar bozori”idagi do‘kondorlardan biriga qo‘shqo‘llab topshirib qo‘ya qoldi. Oradan bir yil o‘tgach, surishtirib bildikki, topshirgan kitoblarimizning bor-yo‘g‘i sakson uch donasi sotilgan emish.

Bu gapni eshitgan zahoti biz ham yoshlarni kitob o‘qimayotganlikda, chin adabiyot bilan “sariq adabiyot”ni farqlamaslikda, jamiyatni mutolaadan yiroqlab borayotganlikda ayblab, dardimizni ichimizga yutganimiz bor gap...

SAFAR ANGLATGAN HAQIQAT

O‘sha yillari viloyatlardan biriga xizmat safariga bormaganimda, haligacha “yoshlar kitob o‘qimayapti”, deb yozg‘irib yuravergan bo‘lardim, ehtimol. Xullas, bir guruh jurnalistlar katta e’tibor bilan uyushtiriladigan “Matbuot kunlari” doirasida chekka viloyatda xizmat safarida bo‘ldik. Maktablar, kollejlar va litseylarda uchrashuvlar bo‘lib o‘tishi belgilangan edi. Qariyb bir haftaga cho‘zilgan safar mobaynida qaysi ta’lim muassasasiga borgan bo‘lsak, deyarli barchasida bir muddat avval o‘zim xizmat qilgan “Tafakkur” nashriyotida chop etilgan kitoblarni ko‘rdim. Ular orasida “Mening Dog‘istonim” ham, “Barhayot ajdodlarimiz” turkumidagi o‘ndan ortiq kitoblar ham bor edi. Yuzimga yugurgan tabassum, “biz nashrga tayyorlaganmiz”, degan mamnuniyat kitoblarni varaqlagach, iztirobga aylandi. Kitoblarning barchasi “qaroqchilik mahsulotlari” ekan.

Aminmanki, o‘shandan buyon ahvol yanada og‘irlashgan bo‘lsa bordir, ammo yaxshilangan emas...

BARCHA IZLAR “CHO‘NTAK”KA YETAKLAYDI

“Kitob qaroqchiligi”ning yoshlar mutolaasiga nima aloqasi bor, deb hayron bo‘layotgandirsiz. Izn bersangiz, buni birma-bir bayon etsam.

Birinchidan, “yoshlar kitob o‘qimaydi”, degan yanglish tasavvur aynan “kitob qaroqchiligi” natijasida vujudga kelgan xomxayol, aslida. Negaki, rasmiy statistika ma’lumotlari ma’lum ma’noda qonunga itoat qiluvchi, noshirlikning shartlari va majburiyatlariga to‘la-to‘kis amal qilayotgan nashriyotlar bergan ma’lumotlar asosida shakllanadi. “Yashirin iqtisodiyot” bilan ayyorona yo‘l tutayotgan tadbirkorlik subyektlarining statistikasi, albatta, bu yerda ishtirok etmaydi.

Ikkinchidan, bugunga kelib shiddatli tarzda urchib ketgan “kitob qaroqchiligi” sog‘lom faoliyat olib borayotgan nashriyotlarning iqtisodiy tang ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki, bitta kitobni nashrga tayyorlash uchun oylab, ba’zida yillab vaqt sarflanadi. Kitob ustida muallifdan tashqari muharrirlar, tarjimonlar, musahhihlar, texnik muharrirlar, dizaynerlar ham mehnat qiladi. Shu tariqa ajoyib bir kitob nashr etilib, ma’lum nusxada sotuvga chiqadi. Ammo noshirdan shu asarning yaxshi sotilmayotganini, bor-yo‘g‘i ikki ming nusxa kitobning sotilishi uchun shu kitobning ikki barobar arzon nusxalari turganini eshitasiz...

Bunda quyidagi tizim bo‘yicha ish yuritiladi. Xalq so‘zi bilan aytganda “shu savdoning nahangi”ga aylanib ketgan qalloblar hamisha “tayyoriga ayyor”. Har birining kitob-daftar va kanselyariya mollari bilan savdo qiluvchi do‘koni, naridan beri ro‘yxatdan o‘tkazilgan chog‘roq bosmaxonasi bor. Biror nashriyotda chop etilgan kitobning ma’lum qismi go‘yoki, sotib pulini to‘lash sharti bilan xarid qilinadi. Agar bu kitobga talab yuqori bo‘lsa, qisqa vaqt ichida o‘z bosmaxonasida uning nusxalarini ko‘paytira boshlaydi. Tabiiyki, “kitob qaroqchiligi” usulida chop etiladigan bosma mahsulotda nashriyot xarajati bo‘lmaydi. Demakki, uning tannarxi arzon bo‘lishi aniq. O‘g‘rilikka qo‘l urgan “tadbirkor” muallifga qalam haqi, muharrirga, texnik muharrirga, musahhihga, rassomga, sahifalovchiga va boshqa xodimlarga maosh to‘lamaydi. Mahsulotning asl egasidan sotish uchun xarid qilgan qismini do‘koni peshtaxtasiga qo‘yib, xaridorga o‘zi tayyorlagan kitobni sotaveradi...

Bu yoqda kitobi sotilmayotgan noshir hayron. Oxir-oqibat nashriyotdan muallif ham ranjiydi, “qalam haqimni to‘lamadi”, deb. Nashriyot xodimlari ham maoshini vaqtida ololmaydi. “Kitob qaroqchiligi” shu tariqa sog‘lom faoliyat yuritayotgan nashriyotni iqtisodiy jihatdan boshi berk ko‘chaga olib kiradi. U yoqda “qaroqchi” shu mahsulotni o‘n minglab nusxada sotadi. 2-3 yil deganda xaridorning to‘yinishiga qarab, nashriyotga bo‘lib-bo‘lib ikki ming nusxaning pulini to‘laydi.

Mualliflik huquqi ham, nashr huquqi ham shunday oyoqosti bo‘ladi. Bu gaplarga isbot qidirsangiz, aksariyat kitob do‘konlarida, hatto bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning qanchasi o‘z egasidan xarid qilinganiga bir qiziqib ko‘ring? Sotilayotgan qancha mahsulot do‘kon balansiga kirim qilingan? Qancha mahsulotning oldi-sotdi hujjatlari mavjud?..

Uchinchidan, “kitob qaroqchiligi” sabab yangi tarjimalar, yangi asarlar nashri oqsamoqda. Negaki, ularni tashkil etish uchun mablag‘ zarur. Mablag‘ esa, o‘z vaqtida, inflyatsiya zararlarisiz sotilayotgan kitoblarning aylanma mablag‘idan ortgan daromad hisobidan vujudga keladi. “Qaroqchi”lar xurujiga uchragan kitoblar sotilmaydi yoki zarar keltiradi. Buning oqibatini yuqorida bayon qildik.

To‘rtinchidan, “kitob qaroqchiligi” o‘quvchilar sonining keskin kamayishiga olib keladi. Negaki, “qaroqchi noshir” tayyoriga ayyor bo‘lib o‘rgangani uchun yangi asarlarni, yangi tarjimalarni nashrga tayyorlamaydi. Natijada kitob bozori yillar mobaynida bir xil mualliflar va bir xil kitoblarga to‘yinadi. Shuning uchun, bora-bora “o‘qishga birorta yangi kitob yo‘q”, degan nolishlarga ko‘nikib boraveramiz.

Beshinchidan, “kitob qaroqchiligi” tufayli iste’dodli muharrirlar ham, musahhihlar ham, sahifalovchi, dizaynerlarni ham boy berish mumkin. Negaki, “qaroqchi noshirlar”ga bu mutaxassislarning qizig‘i yo‘q. Sog‘lom faoliyat yuritayotgan nashriyotlar “qaroqchilar” keltirayotgan zarar tufayli bu mutaxassislarni saqlashga iqtisodiy jihatdan qodir bo‘lmay qolyapti. “Qaroqchi noshir” esa, yillar mobaynida shakllangan muharrirni qadrlamaydi. Bitta qo‘lyozmani o‘qib berishga yuz ming so‘ragan muharrirni qo‘yib o‘n ming evaziga o‘qib berishi mumkin bo‘lgan “nari-beri” mutaxassisni topadi. Bu kunni musahhihning, texnik muharrirning, dizaynerning, sahifalovchining ham boshiga soladi. Oqibatda ilmi ham, hunari ham, oladigan maoshi ham sariq chaqa bo‘lgan arzon ishchi kuchi haqiqiy mutaxassislarni nashriyotdan siqib chiqarmoqda.

Tiriklik tashvishi har bir jonning boshida bor. Shu sababli, noshirlik sohasining chinakam egalari, muharrirlar, musahhihlar, rassomlar, sahifalovchilar, texnik muharrirlar bugun hamma joyda ishlayapti... faqat nashriyotda emas.

Bu borada alohida guruh yoki qarindosh-urug‘larni qidirish shart emas. Qaysi tomondan kelib, sababni qayerdan qidirsangiz ham, barcha yo‘llar “cho‘ntak”ka olib boradi, “qaroqchi”ning cho‘ntagiga.

BUGUNGI KITOB BOZORINING CHINAKAM MANZARASI QANDAY?

Yana qaytarib aytaman, yoshlar o‘qiyapti. Albatta, qo‘liga yetib borgan asarlarni. Badiiy adabiyotlardan tashqari, ilmiy, ensiklopedik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va darsliklarni, turli lug‘atlar, til o‘rgatuvchi kitoblarni o‘qimoqda. Diniy mavzudagi kitoblarni o‘quvchilar katta yoshlilar orasida ko‘proq kuzatiladi. Elektron kitoblar savdosida anchagina jonlanish bor. Faqat kitob savdosining bozor qismi, shu bozorga bosma mahsulot kiritayotgan “uchar”larning nazorati juda sust...

XULOSA

Yuqorida yozilgan fikrlar uchun barcha mas’uliyatni zimmamga olib aytishim mumkinki, mamlakatdagi mavjud qonunlar asosida “kitob qaroqchiligi” borasida keskin choralar ko‘rilmas ekan, besh yildan so‘ng ahvol yanada ayanchli tus olishi, o‘n yilda esa, sog‘lom faoliyat ko‘rsatuvchi birorta nashriyotni topish amrimahol bo‘lib qolishi hech gap emas. Bu omil tufayli, bugunga kelib hech kim texnik muharrir nigohini ko‘rmagan, imlo xatolari g‘ij-g‘ij, noto‘g‘ri ma’lumot berilgan, ko‘chirib olingan muqova bilan chop etilayotgan kitobni ko‘rganda ajablanmay qo‘ydi.

Taklif ham, mulohaza ham shuki, “kitob qaroqchiligi” bilan shug‘ullangan kimsani mutlaqo bu faoliyat bilan shug‘ullanishdan mahrum etish, qonun doirasida xatolik bilan bosma mahsulot nashr qilgan nashriyotga, matbaa korxonasiga (ular ham original maket tayyorlash bilan shug‘ullanishini inobatga olgan holda), poligrafik jihatdan sifat standartlari talablariga javob bermaydigan mahsulot chop etgan bosmaxonalarga shu nashrning tannarxi miqdorida jarima solish va sifatsiz mahsulotni musodara qilish huquqini berish lozim. Toki, “uchar tadbirkorlar” mablag‘ yo‘qotishdan qo‘rqib, chin ma’nodagi professional mutaxassislarni ishga yollasin. Toki nashriyotlar o‘rtasida muharrirlar, texnik muharrirlar, musahhihlar, dizaynerlar va sahifalovchilar uchun qizg‘in raqobat muhiti vujudga kelsin.

Yomonlik jazolanmasa urchib ketadi. Hayot haqiqati shu. Bosma mahsulotlar qaroqchiligiga qarshi qat’iy choralar ko‘rish, arzimagan jarimalar evaziga jazodan ozod qilish amaliyoti o‘rniga shu ish bilan shug‘ullanishdan uzoq muddatga mahrum etish, undan zarar ko‘rgan nashriyot foydasiga yirik miqdorda tovon puli undirish amaliyotini joriy qilish fursati keldi.

P.S: *Noshirlar malakasini oshirish markazi bormi? Borligini eshitmaganmiz. Bo‘lsa yaxshi edi. Negaki, inson qaysi sohada ishlashidan qat’i nazar, takomilga muhtoj. Noshirning malaka oshirishi esa ilmini, demakki, o‘quvchi oldidagi mas’uliyatini oshirish demakdir.*

* * *

Nashriyotlarning yil davomida nashr qilishni rejalashtirgan kitoblar ro‘yxatini xaridorga yetkazib, oldindan buyurtmasini shakllantiruvchi, mamlakatdagi barcha yirik tashkilotlar va ta’lim muassasalarini o‘zida jamlagan savdo tashkiloti yo‘q. Shu bois, kitoblar ming, ikki ming, nari borsa uch ming nusxa chop etila boshladi. Holbuki, butun mamlakatni qamrovchi savdo majmuasi bo‘lganda edi, bu ko‘rsatkich bir necha o‘n minglarni tashkil etishi mumkin edi...

Abdulhamid MUXTOROV

TAHRIRIYATDAN: **gazetamizning shu yil 6-dekabr kungi sonida chop etilgan “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” sarlavhali maqola ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otdi. Bu masala bo‘yicha hamon tahririyatimizga qo‘ng‘iroqlar bo‘lib, yozma munosabatlar ham kelib turibdi. Xususan, Abdulhamid Muxtorov o‘zining ushbu maqolasida “tanganing orqa tomoni”ga e’tibor qaratib, noshirlik sohasida shu chog‘gacha ko‘pchilikning nazaridan chetda qolib kelayotgan qing‘irliklar haqida kuyinib yozgani e’tiborimizni tortdi.**

Darhaqiqat, muallif ko‘targan masala jiddiy! Chunki “qaroqchi noshirlar”ning mo‘may boylik orttirish ilinjida jamiyatda kitobxonlik rivojiga to‘g‘anoq bo‘layotgani yetmagandek, mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham zarar keltirayotganini aslo oqlab bo‘lmaydi.

Shu bois biz ushbu maqola nusxasini O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasiga yo‘llashga qaror qildik. Qilni qirq yoradigan muhtaram soliqchilarimizning bu boradagi fikrlarini eshitish sizga ham qiziq bo‘lsa kerak, muhtaram o‘quvchi!

MUTOLAA

YASHASHGA SHOSHILING!



Maqola yozadigan odam kam. O‘qiydigan odam undan ham kamayib borayotgan bir paytda o‘ylashga undaydigan, diqqat-e’tiborni yashinday tortadigan mavzular haqida asosli tanqid, bahsli tahlil va mulohazalar bilan erinmay yozarmanlar borligi, afsuski, bugun kamyob hodisa. Mayli, oz bo‘lsa-da, soz bo‘lsin.

Qo‘limga biror kitob tushsa, uni oxiridan boshlab o‘qiyman. Bu men uchun an’ana. Kitobning “qaymog‘i” oxirida bo‘ladi, deb hisoblayman negadir.

Bu gal Shohruh Abdurasulovning “Ijodkorlardan olgan ruh” kitobini bo‘lakcha taassurot bilan o‘qidim. Ayniqsa, ommaviy madaniyat haqida bitilgan “Mo‘ylovchilar g‘avg‘osi yoxud xoslar madaniyatiga tahdid” nomli maqola juda manzur bo‘ldi. Rosti, avvaliga biroz xushlamay o‘qishni boshladim. Sababi ma’lum – bu mavzu keyingi vaqtda juda chaynab tashlandi. Yangi gap bormikin, degan o‘y bilan ko‘z yugurtirdim. Biroq men ilgari ahamiyat bermagan, ilg‘amagan haqiqatlarga duch kela boshlagach, qiziqib ketibman.

Tolstoyning Andrey Bolkonskiy va Natasha Rostova kabi qahramonlari, Qodiriyning Otabek va Kumushi bilan bog‘liq lirik voqealar tahlili, Salvador Dalining “Mo‘ylovli Mona Liza”si-yu, musiqiy didning keskin o‘zgarib borayotgani haqida bahsli, ammo chuqur o‘ylashga undaydigan fikrlar e’tiborimni tortdi.

“Dunyoni suv bossa, o‘rdakka ne g‘am?” qabilida hayot kechirish ziyoliman degan odamga yarashmaydi, deydi muallif.

Ha, bugun hamma o‘z tinchi, bola-chaqasini o‘ylab, nafaqat global, hatto, mayda muammoni ko‘rsa ham, yetti qadam naridan aylanib o‘tadigan bo‘lib qolgan. Balki zamona taqozosi shudir. Ammo ziyoli qatlamning bu yo‘sinda hayot kechirishga haqqi yo‘q. Umuman, muallif aytganday, o‘zini ziyoliman deb bilgan har qanday odam umuminsoniy muammolar oldida “mening nima ishim bor, menga nima?” degan o‘yga bormaydi, atrofdagi olamga befarq, beparvo bo‘lmaydi. Bu fikrga qo‘shilaman.

Bugun modernizm niqobi ostida “Pop-art”, “Kosmopolitizm”, “Sadizm”, “Egosentrizm”, “Moda”, “Nutq va jargon”, “Kiber ludonamiya” va “Individualizm” kabilarning urchib borayotgani misol qilib aytilgan. Kim uchundir bu ma’naviyatsizlik, axloqsizlik, kim uchundir bu san’at. Shaxsan men hech qanday izm-pizmlarga qiziqmayman. Ammo buni san’at deb biladiganlarning fikrini o‘zgartirishga-da urinmayman. Sababi, bu uning shaxsiy nuqtayi nazari. Umuman bu bahsning yakuni, yechimi yo‘q, nazarimda. Har kim o‘z haqiqatini haq deb biladi, baribir.

“Siyrat va qismat (Shukur Xolmirzayev esselariga bir nazar)” hayotimizda uchraydigan o‘tkinchilar va haqiqiy qahramonlar haqida xotiralarni qoralab borishga qiziqtirdi meni. Zero, bizga uchraydigan hech bir odam tasodifan paydo bo‘lmaydi. Yo yaxshilik, yo yomonlik bilan bizga saboq beradi har biri...

“San’at – go‘zal iztirob...”ni ham miriqib o‘qidim. Undagi fikrlar ijodning hamma turiga bog‘liq deb o‘ylayman. Xususan, muallifning o‘zi ham shunday fikrni aytadi: “Ijod – insonga Yaratgan tomonidan ato etiladigan samoviy ne’mat”.

Yana shunday fikr e’tiborimni tortdi: “Tasviriy va amaliy san’atning eng katta yutug‘i, ta’bir joiz bo‘lsa, boshqa san’at turlaridan ustunligi – til, millat tanlamasligi, tarjimaga ehtiyoj sezmasligi”. Chindan ham. Eng kuchli ta’sir quroli bu – adabiyot va san’at, deb bekorga aytishmaydi. Sababi, u bilan ezgu g‘oyalarni ham singdirish mumkin, buzg‘unchi g‘oyalarni ham.

Qarashlarimni “Mutolaaga shoshiling” nomli maqoladagi fikrlar bilan xulosalashni xohladim. “Inson qancha umr ko‘rishi, bu umrda nimalarga ulgurib, nimalarga ulgurmasligini o‘zi bilmasligi mumkin, balki ko‘p narsaga ulgurar, balki hech narsaga ulgurmas. Bizning odamday yashashimizga sabab bo‘ladigan omillardan biri, bu – kitob”. Men bu maqolada mutolaaga shoshiling emas, yashashga shoshiling degan da’vatni o‘qidim. Shunday ekan, keling yashashga shoshilaylik, yashashga ulguraylik...

Yulduz O‘RMONOVA,
jurnalist

BORLIQ – BASHARIYAT MULKI

UNI ASRASH UCHUN HAR BIRIMIZ MAS’ULMIZ





Boshlanishi 1-sahifada.

Moskva davlat universitetining jurnalistika fakultetida o‘qidim. Talabalik yillarimda ijodiy faoliyatim avjiga chiqdi. Meni faqat nabotot olami qiziqtirar edi. Qator maqolalar yoza boshladim. Rossiyaning bir qancha shaharlarida amaliyot o‘tadim. U yerlarning tabiati, iqlimi va hayvonot olamini ozmi-ko‘pmi o‘rgandim.

O‘zbekistonga qaytib, “O‘qituvchi”, ya’ni hozirgi “Ma’rifat” gazetasiga ishga kirdim. Ammo bu gazetada meni qiziqtiradigan soha unchalik yoritilmas, yo‘nalishi butunlay boshqa edi. Shuning uchun maqolalarimni qayerga berishni bilmay qiynaldim.

2014-yilda “ekolog.uz” degan sayt ochib, yozganlarimni joylab bordim. 2018-yilga kelib dunyo bo‘yicha ekologik muammolar dolzarblashib, bu haqda ko‘p gapirila boshlandi. Lekin aholining murojaatlari deyarli o‘rganilmas edi. O‘sha yili “ekolog.uz” telegram kanalimni ham ishga tushirdim.

Boshida kanalga kuniga bor-yo‘g‘i bitta yo ikkita murojaat kelib tushardi. Biz ko‘proq ekologik muammolarni ko‘rsatish uchun harakat boshladik. Men hech qachon murojaatchining ism-sharifini e’lon qilmayman. Saytda ism-sharifi ochiqlanmasligini bilgan odamlar ko‘proq murojaat yo‘llay boshladi.

Soha mutasaddilari “Nega odamlar bu mavzuda bizdan ko‘ra sizlarga ko‘proq murojaat qilishadi?”, deb e’tiroz ham bildirishgan. Buning sababi oddiy. Bu idoralarda tartib bo‘yicha murojaatchining ism-sharifi ochiqlanishi shart. Odamlarda esa hali-hamon ichki qo‘rquv bor, andisha kuchli. Masalan, hozir tabiatni asosan tadbirkorlar ifloslantiradi. Deylik, uning qo‘lida ishlaydigan kishi buncha balon yoqildi yoki oqava chiqindini daryoga oqizdik, deb ochiq aytsa, u ishdan haydalishi tayin-da.

Shuning uchun biz bunday ma’lumotlarni kimdan olayotganimizni sir tutamiz. Tazyiqlar ham bo‘lgan. “Kim bu ma’lumotni berdi?”, degan dag‘dag‘ali savollarga ham duch keldik. Chunki biz kichik tadbirkorlik sub’yektlarigina emas, katta-katta korxonalar ham ekologiyani buzishga “salmoqli hissa” qo‘shayotgani haqida bong urganmiz.

Hozirgi kunda faoliyatimiz ancha kengaygan. Mo‘jazgina nodavlat tashkilotimizga har kuni yo‘q deganda 20–25 ta murojaat kelib tushadi. Ekologiya vazirligi, Ekopartiya, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, “O‘zsuvta’minot” va Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlik qilyapmiz. Ekologiya bilan bog‘liq muammolarni hal etishda ular bilan birgalikda ish olib bormoqdamiz.

Bizda haliga qadar ekojurnalistika degan soha yo‘q edi. Dastlab O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida va O‘zbekiston jurnalistika ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘quv dasturlariga ekologiya bo‘yicha darslar kiritildi. Ammo faqatgina 35–40 soatlik ma’ruzalar bilan malakali ekojurnalist tayyorlashning imkoni yo‘q. Albatta, chuqurlashtirilgan bilim va amaliyot kerak bo‘ladi. Keyingi o‘quv yilidan O‘zJOKUga ekojurnalistika yo‘nalishi bo‘yicha ham talabalar qabul qilinadi. 20–25 nafar talaba bo‘lsa ham, har holda ekologiya masalalarini yoritadiganlar safi ko‘payadi. Men shunisiga ham xursandman.

– Ekologiya bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samarasi qay darajada bo‘lyapti? Sizga kelib tushayotgan murojaatlar o‘z yechimini topyaptimi?

– Albatta, yechimini topyapti. Agar shunday bo‘lmaganida telegramdagi “bot”imiz allaqachon yopilib ketgan bo‘lardi. Mutasaddi tashkilotlar bartaraf etilgan muammolar haqida rasmiy munosabat bildiradi. Murojaatchi esa kanalimizda buni kuzatib boradi. Biz masalaning qay darajada hal qilinganini o‘zimiz tekshirib ko‘rib, ishonch hosil qilganimizdan keyin yana kanalimizda e’lon qilamiz.

– Sizningcha, bunday muammolarning ko‘payishiga ko‘proq kimlar sababchi bo‘lyapti?

– Har birimiz ma’lum darajada bunga sababchi bo‘lyapmiz, deb o‘ylayman. Mana, keyingi vaqtlarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida millionlab daraxt ko‘chatlari ekilyapti. Ammo ana shu nihollarning deyarli oltmish foizi qurib ketdi. Nega? Agar ana shu ezgu tashabbus to‘liq ro‘yobga chiqarilganida hozir O‘zbekiston boshdan-oxir bog‘-rog‘larga burkanmasmidi?

Bu yerda xo‘jako‘rsinga ko‘chat ekuvchilardan tortib, oddiy fuqarolarning ham aybi bor. Bir misol aytaman, hozir odamlarning uyi oldiga ham ko‘chat ekib berishyapti. Lekin ana shu ko‘chatlar qurib qolmasin, deb birov bir chelak suv quymaydi. Axir shu nihol voyaga yetsa, ertaga uning soyasida o‘zimizning bolalarimiz, nevaralarimiz o‘ynaydi. Hech bo‘lmasa, ikki kunda bir marta sug‘orish shunchalik qiyin ishmi?

Men ko‘p qavatli uyda yashayman. Yugur-yugur qilib, uyimizning orqa tomoniga 300 tup daraxt ko‘chati ektirdik. Ishonasizmi, ularga suv quyish uchun 64 ta xonadondan atigi uch nafar odam chiqadi. Ularning biri men bo‘lsam, ikki nafari o‘zga millatga mansub qo‘shnilar... Uch kishining 300 tup niholni chelaklab sug‘orishi oson emas. Boshqalar derazasidan bamaylixotir bizni kuzatib o‘tirishadi. Qachonki biron joyda daraxt qurisa yoki ularga shikast yetkazilsa, ko‘pchilik odamlar birdaniga “tabiat jonkuyarlari”ga aylanib qolib, ijtimoiy tarmoqlarga “negativ” joylashga tushib ketadi.

Bundan ham achinarlisi, kun sayin kamayib ketayotgan sayroqi qushlarni ovlab pul ishlayotgan, sudralib yuruvchi jonivorlarni “ming dardga davo” deya sotib hamyonini qappaytirayotgan, daraxtlarni kesib o‘tin qilayotgan kimsalar tabiatga, qolaversa, insoniyatga qanchalik zarar keltirayotgani to‘g‘risida hatto o‘ylab ham ko‘rishmaydi. Biz viloyatlar bo‘ylab ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha treninglar o‘tkazamiz. Ana shunday tadbirlardan birida farg‘onalik bir “ishbilarmon” o‘zi chet davlatga eksport qilgan katta miqdordagi pomidor mahsulotini iste’mol uchun zararli deb topib qaytarib yuborishgach, yurtimizda juda arzon narxda sotgani va odamlar undan minnatdor bo‘lgani haqida g‘ururlanib so‘zladi. Qarang, biz nafaqat tabiatni, balki o‘z-o‘zimizni ham ayamayapmiz.

Yaqinda Chirchiqdagi to‘qimachilik fabrikalarida reyd o‘tkazganimizda chiqindini yashirin tarzda kanalizatsiya quvuri orqali daryoga oqizishayotganiga guvoh bo‘ldik. Terini qayta ishlovchi korxonalarda ishlatiladigan kimyoviy modda o‘ta zaharli bo‘lib, uni maxsus usullar yordamida ko‘mib, zararsizlantirish talab etiladi. Afsuski, ba’zi shovvozlar bu og‘uni shunchaki tuproqqa sepib yuboryapti yoki nari borsa, qo‘lbola chuqurcha kovlab, shunga to‘kyapti. Vaholanki, uning bir tomchisi yerosti suvlariga qo‘shiladigan bo‘lsa, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilishning o‘zi qo‘rqinchli.

Umuman, ekologiya muammosi juda keng ko‘lamli mavzu, ularning hammasini birgina suhbatda qamrab olishning imkoni yo‘q. Uni asrab-avaylash esa har birimizning insoniy burchimiz hisoblanadi. Chunki tabiat, borliq butun bir bashariyatning bebaho mulkidir.

– Nargis opa, “Yashil makon” loyihasiga umummilliy harakat maqomi berilgani bejiz emas. Shu o‘rinda ekologiya sohasiga ixtisoslashgan jurnalist sifatida yashillik olamining tabiatdagi jarayonlarga ta’siri haqida aytib o‘tsangiz.

– Daraxtlar birinchi navbatda chang va tovushni o‘zida ushlab qolish xususiyatiga ega. Lekin bu – faqatgina daraxtlar hayot manbayi degani emas. Hatto, oddiy ajriq ham o‘zidan kislorod chiqaradi.

Bir narsani yaxshi bilishimiz kerakki, ignabargli daraxtlar changni o‘zlarida tutib qololmaydi, aytarli soya ham bermaydi. Bizning iqlim sharoitimizda enli bargli, sersoya daraxtlarning ahamiyati katta. Chunki bunday daraxtlar o‘zining soyasi kengligida yerning namligini ham saqlab turadi. Biz hamon archaga ishtiyoqmandlikdan voz kecha olmayapmiz. Archa o‘zidan fitosintez chiqaradi, lekin u na g‘uborni, na tovushni qaytaroladi. Buning ustiga, ignabargli daraxt bo‘lgani uchun unga qushlar qo‘nolmaydi. Katta bargli daraxtlarning kamayishi o‘z navbatida qushlarning ham kamayishiga sabab bo‘ladi.

Menimcha, daraxt ko‘chatini ekkan tashkilot uning qurib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ham mas’ul bo‘lishi kerak. Yerga uch-to‘rt tup nihol qadab, tantanavor suratga tushish va yuqori tashkilotlarga tantanavor hisobotlar berib ketaverish bilan ish bitmaydi. Kelajak avlodga ona zaminimizni omon yetkazish uchun har birimiz mas’ulmiz. Aholi yashaydigan maskanlarni yashil hududlar bilan o‘rab olish kerak. Ularni parvarishlashni ham zimmamizga olish zarur.

Yer yorib o‘sgan har bir giyohning ham, ko‘z ochgan har bir jonzotning ham o‘z vazifasi bor. Dov-daraxtlar hayotga nafas beradi, havoni tozalaydi. Sudralib yuruvchilar kemiruvchilar bilan, kemiruvchilar esa tuproq ostidagi zararli hasharotlar bilan oziqlanadi. Shu tariqa tabiatda populyatsiya jarayoni davom etaveradi. Odamning asosiy vazifasi esa olamni asrashdir!

– Siz bilan suhbatlarimizni har bitta ekologik muammoga alohida yondashib, albatta, yana davom ettiramiz, degan umiddamiz. Sog‘ bo‘ling!

M.RUSTAMOVA suhbatlashdi.

E’TIBOR

KO‘NGIL KO‘ZI OCHIQ KITOBXON

Mo‘g‘ullar bosqini davrida Vatan ozodligi uchun mardona kurash olib borgan ulug‘ alloma shayx Najmiddin Kubro o‘z asarlaridan birida “Kitob – sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli damlarda madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir”, degan edi. Darhaqiqat, yaxshi asar mutolaasi insonni ruhan poklash barobarida, uni yuksak marralar, ezgu maqsadlar sari undaydi. Shuning uchun bugun diyorimizda kitobxonlikka har qachongidan ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.





Bir necha yillardan buyon nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida “Eng faol kitobxon”, “Brayl yozuvida tez va ifodali o‘quvchi kitobxon”, “Eng yaxshi kitobxon oila” ko‘rik-tanlovlari muntazam o‘tkazilmoqda. Yaqinda Xorazm viloyati ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasida uyushtirilgan “Eng yaxshi kitobxon oila” tanlovi ham ana shunday ezgu an’ananing davomi sifatida ahamiyatlidir. Qizg‘in bahs-munozaralarga boy tarzda o‘tgan mazkur tanlovda Ro‘zmetovlar oilasi birinchi, Allaberganovlar xonadoni vakillari ikkinchi, Niyozmetovlar oilasi a’zolari uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. G‘oliblar Xorazm viloyati ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasi ma’muriyati tomonidan faxriy yorliq va qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

E’tiborli jihati, tanlov qatnashchilari inson ruhini yuksaltirib, uni teran mushohadaga undovchi badiiy asarlarni mutolaa qilishning zavqi har qanday yutuq va sovrindan ustun ekanligini alohida ta’kidlashdi.

Ushbu toifadagi kitobxonlar o‘rtasida tashkillashtirilgan “Eng yaxshi kitobxon” ko‘rik-tanlovida esa viloyat, shahar, tuman kutubxonalarining doimiy o‘quvchisi hisoblangan 12 nafar ishtirokchi o‘zaro bellashdi. Mazkur bilim va tafakkur bahsida urganchlik Gulmira Ro‘zmetova va Yulduz Yo‘ldosheva, xivalik Dilrabo Razzoqova g‘olib deb topilib, munosib taqdirlandilar.

Keyingi vaqtlarda yurtimizda nogironlikning og‘ir turlariga chalingan bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasida amalga oshirilayotgan xayrli tashabbuslar ham o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bugun ana shunday insonlarning ham kitob o‘qishi uchun zarur sharoit yaratilgan. Brayl yozuvidagi adabiyotlarni chop etishga ixtisoslashgan bosmaxonalar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, audio-kitoblar yaratishga mo‘ljallangan yangi ovoz yozish studiyalari ochilgani fikrimiz dalilidir. Buning natijasida ko‘zi ojiz insonlar o‘rtasida ham kitobga bo‘lgan qiziqish yanada ortib bormoqda.

S.RAMATOVA,
Urganch tuman ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasi bo‘lim mudiri

JAHON AYVONIDA

QIRG‘IZ RESPUBLIKASINING YANGI BOSH VAZIRI

Qirg‘iz Respublikasining yangi bosh vaziri etib Adilbek Kasimaliyev tayinlandi. U ikki kun avval prezident iste’foga chiqargan Akilbek Japarovning o‘rnini egallaydi.



Kasimaliyev nomzodi 18-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Jogorku Kenesh (parlament) tomonidan tasdiqlandi. Kasimaliyev deputatlarga o‘zidan oldingi bosh vazir Akilbek Japarov dasturini amalga oshirishni davom ettirishga va’da berdi.

Bu tayinlovga qadar Kasimaliyev bosh vazirning birinchi o‘rinbosari lavozimida ishlagan, 2015-yildan 2018-yilgacha esa mamlakat Moliya vazirligini boshqargan.

DUNYODAGI ENG QUDRATLI PASPORTLAR

2024-yil yakuni bo‘yicha dunyodagi eng qudratli pasportlar ma’lum qilindi – Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) ketma-ket to‘rtinchi yil ushbu ro‘yxatda yetakchilikni saqlab qoldi.

Jahon reytingi dunyo fuqarolari vizasiz kira oladigan mamlakatlar soniga qarab shakllantiriladi. BAA aholisi dunyoning 90 foizidan ortig‘iga hech qanday to‘siqlarsiz bora oladi: 133 ta mamlakatga vizasiz va 47 ta mamlakatga kelgan zahoti viza olish imkoniyati bilan tashrif buyurishi mumkin.



Ro‘yxatning qolgan top-20 qismini Yevropa mamlakatlari egallagan, eng qudratli 20 ta davlatdan 19 tasi Yevropada joylashgan.

O‘zbekiston mazkur reytingda Keniya, Kuba va Qirg‘iz Respublikasi bilan birga 66-o‘rinda joylashgan. Mamlakat fuqarolari 32 mamlakatga vizasiz tashrif buyurishi, shuningdek, 46 mamlakatda yetib borgandan so‘ng viza olishi mumkin.

95 YOSHLI RASSOM KO‘RGAZMASI

Ijtimoiy tarmoqda taniqli shaxsga aylangan yaponiyalik 95 yoshli avangard rassom Yayoi Kusamaning 180 ta asari Avstraliyadagi Viktoriya milliy galereyasida namoyish etilmoqda.



Ko‘rgazmadagi eng dastlabki ijodiy ishlar 1930-yillarga to‘g‘ri keladi va eng oxirgisi 2024-yilda yaratilgan.

Ko‘rgazmaga oid suratlarni jadid.uz sayti orqali tomosha qilishingiz mumkin.

UYG‘OQ XOTIRA



OG‘IR QOG‘OZ ZARGARI

Chinakam ijodkor anchayin bir xatni ham qo‘l uchida yozmaydi. Yozolmaydi. Ijodiy vijdoni bunga yo‘l bermaydi. Qog‘ozga biror nima yozib-chizish lozim bo‘lganda uni hamisha astoydil, bor imkon, tajribasini ishga solib bajaradi. Har qancha tajribakor, har qancha ulkan iste’dod egasi bo‘lmasin, kor-u a’moli shu! Biladiki, ko‘nglining tarjimoni mana shu oq qog‘oz, uni ko‘ngil buyurmagan noshoyista so‘zlar bilan naridan-beri to‘ldirmoq – gunoh. Yozuv mashg‘uloti, ayniqsa, ijod ishi esa hamisha mashaqqattalab, negaki “hammasidan og‘iri – qog‘oz...” (Asqad Muxtor ta’biri).

Ustozning o‘zi-da so‘z mehnati – yozuvchilikka mudom ana shunday zo‘r mas’uliyat bilan yondashgan. Uning eng dastlabki ijodiy mashqlaridan boshlab so‘nggi mashhur “Tundaliklar”iga qadar o‘qib chiqqan odam bunga amin bo‘ladi; shunchaki o‘ynab, ermakka bitilgan satrni topolmaysiz. Muayyan davr taqozosi bilan yoki siyosiy injiqliklarni hisobga olib yozilgan bo‘lishi mumkin, biroq shular ham beorom yurak “teri”, tinimsiz mushohadalar zaminida dunyoga kelgan.

Esimda, yosh qaytib, xasta bo‘lib qolgan kezlarida ustoz bir gal “Mana, endi yozadigan zamon keldi, sizlar yozasizlar. Biznikining ko‘pi chiqit bo‘ldi-da”, degan edilar armon bilan.

Aslida shundaymi?

Asqad Muxtor kitoblarini bot-bot varaqlab turaman. “Tug‘ilish”, “Davr mening taqdirimda”, “Bo‘ronlarda bordek halovat”, “Chinor”, “Buxoroning jin ko‘chalari”, “Jar yoqasida chaqmoq”... Miqyos va teranlik, mahorat da’vosi emas, asl mahorat namunalari! Yaqinda “Amu” romanini yana qo‘lga oldim. O‘sha davr siyosiy mavzularida yozilgan, adib ijodida birmuncha kampisandroq hisoblangan shu asarni qayta o‘qib, hayratga tushdim: havas qilgulik til, tasvirlar, qahramonlarning rang-barangligi, xarakter bo‘rtiqligi, siyosiy-ijtimoiy muammolar zalvari! Men keyingi chog‘larda bunday mahorat bilan bitilgan asar o‘qimagan edim. Vaholanki, unga asos qilib olingan voqelikni o‘rganish uchun muallifning atayin Afg‘onistonga borib kelganidan bexabarman...

Yoki o‘tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy muhit tasviriga bag‘ishlangan “Buxoroning jinko‘chalari” asarini oling. O‘qigan odam uni qadim madinaning Labihovuz mahallasida tug‘ilib o‘sgan bir piri donish yozgan deya xayolga borishi mumkin.

Yodimda, bundan o‘n yillar muqaddam “Qoraqalpoq qissasi”ni mutolaa etganimda ham shunday taassurotda qolgan edim.

Bir qarashda bular – sotsrealizm asoslarida yozilgan asarlar. Xo‘sh, shunga ko‘ragina ularni chiqitga chiqarmoq insofdanmi? Yozuvchi, avvalambor, nimani yozgani uchun emas, qanday yozgani uchun javobgar. Shunisiga qarab uning ijodiga, asarlariga baho berilsa o‘rinli, adolatli bo‘ladi.

Yoki ustozning dramaturgiya sohasidagi “Samandar”, “Zar qadri”, “Tong bilan uchrashuv” asarlarini olib ko‘ring. Qahramonlari, voqelik, o‘rtaga qo‘yilgan muammolar muayyan davrga xos. Ammo xarakterlar talqini, fikrlar ko‘lami, xususan, “Zar qadri”dagi xalqona tilni qarang!

Ijod ishiga ana shunday mas’uliyat bilan yondashgan adib badiiy tarjimalarga ikkinchi darajali ish deb qaramog‘i mumkinmidi?

Asqad Muxtorning jahon dramaturgiyasidan qilgan tarjima asarlarini o‘qigan bir rusiyzabon olim ularni asliyatga solishtirib chiqib, “O‘zbek tilining tasviriy imkoniyatlari bu qadar zo‘rligini bilmagan ekanman, ayniqsa, fojeiy holatlarni ifodalashda rus tilidan chandon oshib tushadi-ya!” deb e’tirof etdi.

Holbuki, bu o‘rinda gap tilning qudrat-imkoniyatidagina bo‘lmay, tarjimonning mahoratiga, iqtidoriga, boringki, insofu vijdoniga ham bog‘liq.

Darvoqe, ustoz badiiy tarjima bilan muntazam shug‘ullanish barobari tarjima nazariyasini puxta egallagan o‘ziga xos olim ham edi. Qo‘limizda bundan oltmish yillar burun – 1957-yilda nashr etilgan ma’ruza matni. O‘rta Osiyo tarjimonlari anjumaniga atab rus tilida tayyorlangan ushbu ma’ruza “Rus tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimaning ayrim masalalari” deb ataladi. Undagi ko‘p gaplar hamon dolzarbligini yo‘qotmagan. Qolaversa, ustozning tarjima san’atiga doir fikr-mulohazalari hanuz ilmiy maqolalarga ibratli iqtibos bo‘lib kelayotgani jamoatchilikka ma’lum.

Tavalludining 90 yilligi arafasida solih farzandi Eldor Muxtorov o‘z tashabbusi bilan adib tarjima asarlarini nashr ettirgan edi. Bir chekkasi – farzandlik burchi, albatta. Ammo buning shoyon savob, qutlug‘ ishligini minnatdorlik ila ta’kidlamoq biz, kitobxonlarning burchimizdir.

Ko‘rib turibmiz, goho hashar yo‘sinida ul-bul qoralab-qoralamay nomini “tarixga muhrlab” ketgan ayrim adabiy arboblarimizning uddaburon farzandlari otalarining tavallud ayyomlari arafasida turli davlat va jamoat tashkilotlarining, nashriyot-u tahririyatlarning yo‘l-yo‘lagini changitib yuboradi: “Paxanning yirik sanasi, maqola chiqarish kerak, kitob chiqarish kerak!” Ustoz Asqad Muxtorning ikki o‘g‘li bor, ikkalasi ham fan doktori, zukko professor. Adabiy jamoatchilik ularni eshitgan chiqar, ammo o‘zlarini ko‘pchilik ko‘rmagan bo‘lsa kerak – shunday tamkin, kamsuqum. Padari buzrukvorlarining 100 yillik yubileyiga hozirlik boshlangan kunlarda bu ikki aka-uka hech kimni bezovta qilmay, o‘rtaga mablag‘ tashlab, kutubxonalarga beg‘araz tarqatish maqsadida adibning ikki jildli saylanmasini nashr ettirganiga nima deysiz! Biz, ustozni ko‘rgan, u donishmand, olijanob zotdan ta’lim olib, mehridan bahramand bo‘lgan avlod bu holga aslo ajablanmaymiz. Lekin ana shunday tanti otaga munosib hurmatli olimlarning farzandlik himmatidan mutaassir va minnatdor bo‘lgan holda aytamizki, Asqad Muxtor o‘zbek adabiyotining cho‘ng ustunlaridan sanalmish benazir adib, o‘z ta’biri bilan aytganda, mangulikka daxldor siymo! Xalqimiz ezgulik jabhasida beminnat xizmat qilgan bunday farzandlarini ardoqlashni biladi.

Erkin A’ZAM,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

NUQTAYI NAZAR

YANGI ZAMON TARJIMACHILIGI HAQIDA

Tili mustaqil bo‘lmagan mamlakat ko‘p axborotni boshqa tildan oladi, oqibatda ularning dunyoqarashi ta’siriga beixtiyor tushib qoladi.

Yigirma birinchi asr tarjimachiligi avvalgi davrdagidan talay jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Bu tafovut, avvalo, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi mustahkamlanganligida, asarlarni dunyoning ko‘pgina tillaridan bevosita o‘girishga o‘tilganida va mutarjimlar sonining ko‘payganida ko‘rinadi. Nisbatan qisqa bir zamonda bizda turk tilidan o‘girish amaliyoti shiddat bilan yuzaga keldi va taraqqiy topdi, boshqa turkiy tillardan tarjima qilish ham rivojlanib kelayotibdi. Yana bir o‘ziga xoslik, diniy asarlar ko‘p o‘girilayotgani bilan bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida ona tilimizda diniy leksikonning keskin ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Albatta, buni yangi tarjimachilik davri, deb atash mumkin. Uning yana bir qancha muhim sifatlari bor, bular keyingi o‘girmalarning yutuqlariga zamin bo‘lsa, ajab emas.

Ammo qo‘lga kiritilgan yutuqlarni sanash bilan cheklanmay, hozirgi jarayonning ayrim nuqsonlarini ham ko‘ra olsak, takliflarimizni o‘rtaga tashlab, o‘rgansak, yaxshi bo‘lar edi. Chunonchi, bizning kuzatishimizcha:

O‘zbek tilining tugal davlat tili bo‘lishi bu to‘g‘rida qonun borligiga, uning mukammalligiga, har bir bob va moddasining benuqson ekaniga ham, unga amal qilishni davlat idoralari nazorat etib, aybdor har bir yuridik va jismoniy shaxsni jazolashiga ham emas, balki, avvalo, mamlakat iqtisodiy hayotining qudratiga bog‘liq. Ya’ni, mamlakat iqtisodiyoti nochor bo‘lsa, tilimizni nafaqat boshqa el-yurt vakillari, hatto o‘zimiz ham mensimay qo‘yamiz. Qarang, odamlar hozir bir mahallar dunyoga antik adabiyot va madaniyatni, tengsiz san’atni hadya etgan greklarning tilini emas, tobora kuch-qudratga inayotgan koreyslar tilini o‘rganishni afzal biladi. Chunki keyingisida iqtisodiy hayot rivoj topyapti. Shunday ekan, “buyuk ota-bobolarimiz” haqida kuylasakda, bugungi dunyo ravnaqini o‘zga tillar orqali qabul qilsak, tor hovuzdagi baliqcha holiga tushishimiz tayin.

Bir to‘p shoir-yozuvchilar, jurnalistlar, til-adabiyot o‘qituvchilari, so‘z san’ati muhiblarining fidoyiligi bunda kamlik qiladi. Butun xalq xo‘jaligida o‘zbek tili ishlasa, xalqning o‘zi shunga astoydil intilsa, ana o‘shanda o‘zbek tili davlat tili bo‘ladi.

“Davlat tili” idoralararo yozishmalar o‘zbek tilida yuritilishigina emas (ish yuritish qog‘ozlari – baayni dengiz suvi yuzasidagi bir enlik qatlam, uning qirq quloch chuqurligi, to‘rt chaqirim qa’ri bor), balki butun mamlakatda ishlab chiqarish va texnologiya shu tilda amalga oshirilishiga, chunonchi temiryo‘l vagonlari shu tilda ishlab chiqilgan yo‘riqnoma asosida yasalishi va ta’mirlanishiga, Internet orqali joriylanayotgan har qanday material istalgan lahzada o‘zbek tilida mukammal holda tayyor bo‘lishiga, yurtning har bir katta-kichik rahbari bu til uchun jon kuydirishi va elning o‘zi boshqa tilga og‘uvchilarni yoqtirmasligiga – butun mamlakatda o‘zbek tili muhiti yuzaga kelishiga bog‘liq. Ana o‘shanda tilimiz davlat tili bo‘ladi.

Shundan so‘ng o‘zbek tilining unib-o‘sishiga hamma ishonadi, biz boshqa ellar tomonidan “yutilib”, ularga assimilyatsiyalanib ketmasligimizga umid uyg‘onadi. Kelajagi omonat bo‘lmagan xalqning milliy ruhi barq uradi, tilidagi ne bir badiiy mo‘jizalar xuddi yer ostida yotgan yombiday bo‘lib yuzaga chiqadi, ko‘zlarni, ko‘ngillarni quvnatadi. Bu holda tarjimalar original asar kabi o‘qiladi, til esa tobora boyiydi, ta’sirchanligi ortadi.

Hozir esa (he, attang!) bir o‘zbek amaldori o‘ziga tayyorlab berilgan ish qog‘ozini ko‘rib, “buni rus tilida keltiring menga”, deganini eshitdik...

Tili zaif bo‘lgan mamlakat ko‘p axborotni boshqa tildan oladi, oqibatda ularning dunyoqarashi ta’siriga beixtiyor tushib qoladi. Ya’ni, siyosiy iroda barqaror bo‘lmasligi xavfi bor.

Mana shuning uchun bizga mukammal tarjimalar kerak. Har tomonlama. Ammo XX asrning boshidan oxirigacha asosan rus tilidan o‘girib kelgan bo‘lsak, undan uzoqlashganimiz hamono turk tilini yalov qilib olyapmiz, turk adabiyotida nimaiki bo‘lsa (hatto o‘rtamiyona adiblarining asarlarini ham) o‘zbekchaga o‘girib, kitob qilib chiqaryapmiz. Bular o‘zbek o‘quvchisiga kerakmi, adabiyotimizni boyitishga qodirmi, unisi bilan ishimiz yo‘q.

Buning davosi – dunyoning o‘nlab boshqa tillaridan o‘girishni rag‘batlantirish kerak. Va albatta, ruschadan eng yaxshi badiiy va ilmiy-ma’rifiy asarlarni tarjima qilishni ham tashlab qo‘ymasligimiz kerak.

Kulgili bir misol. Lev Tolstoyning bir ayolga islom dini haqida yozgan xatini men tarjima qilganman, u 2000-yilda “Hurriyat” gazetasida chop etilgan. Endi buni qarangki, oradan yigirma yil o‘tib, uni rus tilidan ozarbayjonchaga Telman Aliyev va Voqif Xalilovlar o‘girishibdi. So‘ng ozar tilidan turkchaga Orif Arslon tarjima qilibdi. Va nihoyat, boyagi xatni uchinchi til – turkchadan Abdumurod Tilavov o‘zbekchaga ag‘darib taqdim etibdi. Boringki, A.Tilavov mavjud tarjimadan bexabar bo‘lsa ham, maktubni “rus – ozar turk – o‘zbek” tarzida emas, “rus – o‘zbek” tarzida o‘girganida to‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki har bir tarjima chog‘i asliyatdagi nimadir ozdir-ko‘pdir boy beriladi. Shu ma’noda, to‘rtinchi tildan o‘girganda emas, ikkinchi tilda ma’no yaxshiroq aks etadi.

Turkchadan faqat badiiy emas, diniy kitoblar ham ko‘p o‘girilyapti. Ulamolar ularning arabchasini o‘qib olishlari mumkin bo‘lgani holda, buncha ko‘p asarlarning tarjima qilinishiga sabab, o‘zbek eliga diniy ma’rifat berishni ko‘zlash emas, balki avvalo diniy kitoblar ko‘p sotilayotganligi, bu tarjimalar daromad manbayi ekanligini ko‘p korchalon-u uddaburonlar payqab qolganligi bo‘ldi, nazarimizda. Afsuski, diniy xilma-xil kitob ko‘paygani sari ulamolar orasida ixtilof va munozaralar ham avj olib borayotibdi.

Bizningcha, butun xalq murattab qori va mulloyi zabardast bo‘lishi shart emas, tor spesifik masalalarni minglab nusxalarda chop etaverish diniy ma’rifatning ziddiga xizmat qilib qolishi ham mumkin.

Tarjima sohasidagi eng chatoq holat – o‘girilgan asarlarning tili va uslubi nochorligi bo‘lyapti, bu esa umumo‘zbek adabiy tilini parokanda qilyapti. Atigi o‘n yil ichida “Sevara Nazarxondan yangi qo‘shiq” (Sevara Nazarxonning yangi qo‘shig‘i, deyish o‘rniga), “Ustoz san’atkordan ajoyib ijro” (Ustoz san’atkorning ajoyib ijrosi), “Mahalladagi ishsiz ayollarning bandligini ta’minlash” (ish bilan ta’minlash, deyish o‘rniga), “qonun ijrosini ta’minlash” (qonunga amal qilish, deyish o‘rniga) kabi so‘zma-so‘z, hijjaviy o‘girmalar paydo bo‘ldiki, tezroq oldi olinmasa, ular ham ommalashib ketishi mumkin. Bunaqa yanglish, til tabiatini buzadigan ifodalarga ko‘nikib ham borayotibmiz.

Til va tarjima borasida muammolar ko‘pligini dalillash uchun bittagina so‘zni misolga keltira qolaylik. O‘ttiz yildan oshdi, bizda “qirol”, “qirolicha” degan g‘alati so‘zlar rosa urchidi. Xo‘sh, “qirol” va uning urg‘ochisi “qirolicha” tushunchalari qayoqdan paydo bo‘ldi? Agar buni inglizlardan kelgan desak, inglizlar hukmdor (podshoh)ni “korol” emas, “king” deydi. “Korol” degan so‘z o‘n ikki yarim asr avval franklarga hukmdorlik qilgan Buyuk Karl nomidan olingan. “Sezar” so‘zi (kishi ismi)dan ruslar “sar” (shoh) yasab olganiday, “Karl” nomi korol degan titulga bois bo‘lgan. Xo‘p, lekin “korol”ning Sharqqa nima aloqasi bor?

Ba’zi mutarjimlarning tanballigi, ko‘r-ko‘rona tarjima qilishlari orqasida “Saudiya Arabistoni podshohi” degan ma’no “Saudiya Arabistoni qiroli” deb taqdim qilinadi. Holbuki, arablarda qirol bo‘lmaydi, chunonchi Saudiya Arabistoni podshohi arab tilida “Malikul mamlakati al Arabiya as Saudiya” deb ataladi. Ya’ni, qirol emas, malik. O‘zbek tilida uning “qirolicha” degan “jenskiy rod”i ham yasalgan. “Qirol” so‘ziga “icha” degan jins bildiruvchi qo‘shimchasi qaydan qo‘shilgan – hech kim bilmaydi. Koreyslarning “Dengiz malikasi” kinofilmi nomi bizda “Dengiz qirolichasi” deb ruschadan shunchaki ko‘tarib o‘tkazib qo‘ya qolingan. Koreyslarda qirol yo qirolicha degan so‘z mavjud bo‘lsayam mayli edi.

Bu – bittagina so‘z ustidagi gap. Tilimizni bunaqa chuchmal, bema’ni so‘zlardan tozalash, eshitganda odamning g‘ashi keladigan ifoda shakllaridan orasta qilish kerak. Yo‘qsa, shunday go‘zal, ohangdor, ifodaga boy lisonimizni boy beramiz. Bunday hollar esa yuz-yuzlab.

Ana shunday qila olsakkina ona tilimiz turli “dardlar”dan forig‘ bo‘ladi, tobora sog‘ayadi, qaddini rostlaydi va ozod, erkin xalqning ona tili sifatida dunyoning yetakchi tillari orasidan o‘ziga munosib o‘rin egallaydi.

Tarjima deganda asosan badiiy asarlarni o‘girish tushuniladigan bo‘lib qoldi. Holbuki, badiiy tarjimaning o‘zi bu yangi davrda kifoya qilmaydi. Ilmning filologiya va tarix kabi bir-ikki sohasidagi adabiyotlarnigina emas, barcha fanlarni, texnikaviy asarlarni, tibbiyotga oid, buxgalteriya va bank sohasini, falsafa va iqtisodiy kitoblarni, yana boshqalarini paysalga solmay o‘zbekchalashtirish, bunday tarjimalarning xossalarini tadqiq etib, muammolarini hal etish kerak. Chunki o‘zbek tilida ish yuritish va badiiy adabiyot – shu ikkovi bilangina ona tilimiz davlat tili darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Bugungi kunda umuman o‘zbek tiligina emas, lug‘atimizdagi so‘zlar ham davlat ahamiyatiga ega bo‘lib boryapti. Bir zamonlar sudda yutib chiqib, o‘ziga yetkazilgan zararni undirmoqchi bo‘lgan odam sudning qarorini ruschaga rasman tarjima qildirishi shart edi, O‘zbekistonda o‘zbek tilidagi sudning qarori inobatga o‘tmas edi. Endi esa o‘tadi! Ammo bunda har bir so‘z eng aniq va to‘g‘ri



tarjima qilinishi lozim ekanini ta’kidlab o‘tirmaymiz.

Xalqaro shartnomalarimiz davlat tilida imzolanadi va kuchga kiradi. Demak, tushunmovchilik kelib chiqmasligi uchun tarjima aniqligi juda muhim. Yaxshi esimda, men o‘girgan bir shartnoma matnida “har ikki davlat o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qiladi”, degan bir jumla bor edi, shu ifoda o‘sha davlat diplomatlaridan biriga yoqmabdi. Sababi, ularning tilida “manfaatdorlik” foydaxo‘rlik, hatto sudxo‘rlik degani kabi ekan. Buning ma’nosi bizda mana bunaqa, deb tushuntirish oson bo‘lmagan.

Yoki “ekstraditsiya” (выдача) degan so‘zni oling. Chet elga qochib ketgan jinoyatchini tutish va yurtiga qaytarish degani. Uni men “tutib topshirish” deb o‘girdim, ammo qabul qilinmadi. Chunki avvalgi shartnomalarda bu so‘z “ushlab berish” deb ag‘darilgan, o‘nlab shunday shartnomalarda shunday tarzda ketgan ekan. Ko‘ryapsiz, bu shunday jiddiy bir ishki, xato qilsangiz, tuzatish imkoni ham bo‘lmaydi – avvalboshida yanglishmasligingiz kerak.

Xullas, tarjimachilik katta yo‘lga tushyapti. Davlat ahamiyatiga molik jiddiy ishga aylanyapti. Endi bizga asliyat tilini, o‘girilayotgan narsa xossalarini va eng muhimi, tilimizning milliy xususiyatlarini yaxshi biladigan, til tabiatini nozik his qiladigan lak-lak tarjimon kerak. Xo‘sh, buncha tarjimonni qayerdan olamiz? Institutlarda fakultet yo bo‘lim ochib, talaba o‘qitib, diplom berib chiqargan bilan ish bitmaydi. Illo, o‘ttiz yilki bu tadbir ish bermadi. Nimaga desangiz, tarjimonlikka o‘qitadigan aksar muallimlarning o‘zi eplab-seplab tarjima qilishi dargumon.

Aslida, nafaqat badiiy tarjima, balki har qanday tarjima – san’at. Teatr institutida, oliy adabiyot kursida, konservatoriyada, rassomlik bilimgohlarida besholti kishilik talabalar guruhi bir mashhur san’at ustasiga birikтirilib, “falonchining sinfi” sifatida ta’lim olgani kabi, atoqli tarjimonlarni bu ishga jalb etish, bo‘lg‘usi ijodkorlar bu yuksak san’at (Korney Chukovskiy iborasi) sirlarini sinchiklab o‘rganishlari uchun yana boshqa sharoitlarni yaratishga kirishaylik. Albatta, bu bir-ikki yilda amalga oshib qoladigan ish emas. Ammo hozirdan bel bog‘lashimiz shart.

Ona tilimiz har tomonlama mukammal, asl ma’noda davlat tili bo‘lishini chindan ham istasak, shunday qilamiz. Bo‘lmasa, o‘sha eski gap – ishga boramiz, oshga boramiz: kunlar, yillar o‘tgani sari o‘zbek adabiy tilining muazzam va muhtasham binosi puturdan keta boradi, odamlar boshqa tillarda barpo bo‘layotgan ajoyib-g‘aroyib, sehrli olamga ko‘chib o‘ta boradi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

“JADIDLAR MEROSIGA MEHRIM O‘ZGACHA”

Yaponiyalik taniqli jadidshunos olim Hisao KOMATSU bilan suhbat

Boshlanishi 1-sahifada.

Bilasizki, XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin chor Rusiyasi istilosi natijasida Turkiston o‘lkasi tarixida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu vaqtda musulmon ziyolilari nimalarni angladi va qanday sa’y-harakatlarga qo‘l urdi, degan savol paydo bo‘ldi menda. Shu bois avvaliga fransuz va rus tillarini o‘rganishga kirishdim.

1974-yilda universitetni bitirishda “Ahmad Donish va uning zamoni” mavzusida bitiruv dissertatsiyasini hozirladim. Aspiranturada turkiycha va usmonli turk tillarini o‘rganib, 1977-yilda Yosh buxoroliklar harakati to‘g‘risida dissertatsiya yoqladim. Abdurauf Fitrat faoliyatiga doir tadqiqotlarim ham o‘sha zamonlarda boshlangan edi. Afsuski, o‘sha davrda Yaponiyada bu mavzuda biron bir adabiy manbani topishning imkoni bo‘lmadi.

Shu sababdan professor Eduard Olvortdan iltimos qilib, Fitratning “Munozara” asari fotonusxasini qo‘lga kiritdim.

Doktoranturadan keyin 1978-1979-yillarda Turkiyada o‘qidim. Chunki sovetlar zamonida Toshkentga kelib, bu mavzuda izlanish olib borish aslo mumkin emas edi. Anqara universiteti til va tarix-geografiya fakultetida o‘qigan chog‘larimda kutubxonalardagi manbalar hamda Rusiya va O‘rta Osiyodan borgan muhojirlar yordamida bir qancha manbalar to‘pladim. O‘zbekcha matnlarni o‘sha zamonda o‘qishga kirishdim, to‘g‘risi, arab imlosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvini o‘zim mustaqil ravishda o‘rgandim. Zotan, XX asr boshlaridagi Usmonli va o‘zbek yozuv tili orasida bir talay uyg‘unliklar bor edi.

Yaponiyaga qaytgach, turli universitetlarda Turkiston tarixiga doir izlanishlar olib bordim. Bu orada Fitratning “Munozara” asari, Buxoro va Qozon shaharlari orasidagi madaniy aloqalar, Qo‘qon xonligi bilan Usmonli turk davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar, 1898-yilda yuz bergan Andijon qo‘zg‘oloni, Buxoro va Turkistonda jadidlik harakati kabi mavzularda qator maqolalar yozdim. 1996-yilda Fitratning hayoti va uning ma’rifatparvarlik qarashlariga bag‘ishlangan “Inqilobchi O‘rta Osiyo: bir jadidning qiyofasi” sarlavhali kitob nashr ettirdim. Inqilob tufayli tanglikka tushib qolgan vatandoshlariga yo‘l ko‘rsatishga chog‘langan turkistonlik ziyolilarning fikri va faoliyati e’tiborimizdan chetda qolmadi.

O‘sha kitobimni nashrga tayyorlashda sobiq sovetlar mamlakatida kechgan qayta qurish davrida sizlarning yurtingizda chop etilgan matbuot nashrlari va o‘zbek olimlarining yordami menga juda asqotdi. Chunki jadid adabiyoti o‘sha



davrlardagi ijtimoiy holat va qarashlar tarixini o‘rganish borasida juda muhim manba sanaladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning 1915-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasida chop etilgan “To‘y” she’rida o‘sha davrdagi ijtimoiy muammolar ochiq namoyon qilingan.

– Bugun Yaponiyada o‘zbek tili va adabiyotiga qiziqish qay darajada? Kunchiqar yurt kitobxonlari bizning adiblarimiz ijodidan xabardormi?

– Afsuski, yaponiyalik mutaxassis olimlarning o‘zbek tili va adabiyotiga qiziqishlari juda oz, deb o‘ylayman. Garchi “Boburnoma” asari va “Alpomish” dostonlari yapon tiliga tarjima qilingan bo‘lsa-da, bizda o‘zbek adabiyoti hali ochilmagan qo‘riq sanaladi. Sovetlar zamonidan, masalan, Chingiz Aytmatovning asarlari Yaponiyada ham tarjima qilinib, juda ko‘p nusxada nashr qilingan edi. Ammo o‘zbek adiblarining asarlari yaponchaga o‘girilmadi.

Bu sohada yo‘l ochish uchun jiddiy harakat qilmoq lozim. Men muhtaram do‘stlarim Aftondil Erkinov va Zaynobiddin Abdirashidovdan o‘zbek mumtoz adabiyoti va jadidlikka doir maqolalarni so‘rab olib, ularni ingliz tilidagi “Asian Reserach Trends” (“Osiyo tadqiqot yo‘nalishlari”) jurnalida chop etishga bosh-qosh bo‘ldim. Biz uchun bunday tanishtiruv xarakteridagi ishlar juda ham zarurdir. Ta’kidlash kerakki, 2012-yilda Tokiodagi Xorijiy tillar universitetida Yaponiyada birinchi marta O‘rta Osiyoga oid tadqiqotlarga yo‘naltirilgan maxsus bo‘lim ochildi. Kamina ancha vaqt ana shu dargohda ishladim. Bu maskanda rus va o‘zbek tillarini o‘rganish majburiy bo‘lib, har yili ikki yoki uch talabamiz Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga borib tahsil olar edi. Ana shu yoshlar orasidan kelgusida o‘zbek tili va adabiyotini bizning mamlakatga tanishtiradigan mutaxassislar yetishib chiqishiga umid qilaman.

– To‘g‘risi, o‘zbek o‘quvchilari orasida yapon adabiyotining muxlislari ko‘p. Siz bugungi yapon adabiyoti namoyandalaridan qaysi shoir va yozuvchilarning ijod namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni tavsiya etgan bo‘lar edingiz?

– Ko‘p sonli iste’dodlar orasidan birortasini tanlash ham juda qiyin ish. Shu o‘rinda men yapon kitobxonlarining sevimli adiblari bo‘lmish Sosoki Natsume (1867–1916) va Osamu Dazai (1909–1948) nomlarini tilga olmoqchiman. Xususan, Sosokining “Ko‘ngil”, “Men mushukman” romanlari, Dazaining “Zavolli umrim” qissasi hamda “Moyeris” hikoyasi o‘zbek kitobxonlariga ham manzur bo‘lishiga ishonchim komil. Shubhasiz, zamonaviy yozuvchilardan Haruki Murakami yaponiyalik eng yaxshi adiblar sirasiga kiradi.

– Bugungi o‘zbek adabiyotining miqyosi kengayib, dunyoga yuz tutayotgan bir davrda siz tanishgan qaysi o‘zbek shoir yoki yozuvchilarning asarlari yapon o‘quvchilariga ma’qul bo‘ladi, deb o‘ylaysiz?

– To‘g‘risi, zamonaviy o‘zbek adabiyotidan yetarlicha boxabar emasman. Biroq mening yaqin kelajakda Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy asarlarini yapon tiliga tarjima qilish niyatim bor.

– Siz mashhur musulmon olimi va sayyohi Abdurashid Ibrohim faoliyati bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan olim sifatida o‘zbek gazetxonlariga qanday yangi ma’lumotlarni ayta olasiz? Uning kitoblarida yoki yapon tilida bosilgan asarlarida Turkistonga tegishli ma’lumotlar ham bormi?

– Otasi buxorolik sanalgan va chor Rusiyasi zamonida Sharqiy Sibiriyada dunyoga kelgan Abdurashid Ibrohim XIX asr so‘ngidan XX asr boshlarigacha Rusiya musulmonlarining siyosiy va ijtimoiy harakatlaridagi yo‘lboshchiligi bilan tanilgan musulmon ziyolilaridan edi. U 1908-1909-yillar orasida Yevroosiyo qit’asini kezib chiqqan mashhur sayyoh hamdir. “Olami islom: Yaponiyada intishori islomiyat” deb nomlangan sayohatnomasi esa adibning nomini abadiyatga muhrladi. Ayniqsa, uning Yaponiyaga qilgan safari maishiy jihatdan yaponlarning islom dunyosi bilan yaqindan tanishishiga yo‘l ochdi.

Buning natijasida Ibrohim afandi va panosiyochi yaponlar orasida yaqin do‘stlik aloqalari yuzaga keldi. U turli sabablar tufayli 1933-yilda Tokioga borib, shu yerda muqim yashab qoladi. Yaponiya aholisini islom diniga e’tiqod qiluvchi ko‘p xalqlarning adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishtirish borasida qator xayrli ishlarni amalga oshiradi. Ibrohim afandi Ikkinchi jahon urushi davri – 1944-yili Tokioda vafot etadi. U kishi men ishlaydigan universitet yaqinidagi Tama qabristoniga dafn qilingan. Umuman olganda, Ibrohim afandining faoliyati urushdan oldingi Yaponiyaning islom dini borasidagi siyosatini o‘rganishda ham juda muhim hisoblanadi.

Ibrohim afandining sayohatnomasi o‘zbek o‘quvchilari uchun ham juda qiziq bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Chunki mazkur asarda muallifning 1907-1908-yillarda Turkiston o‘lkasining Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona vodiysi, Yettisuv, Olma ota, Semipalatinsk kabi shahar va hududlarida shaxsan o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar bayon qilingan bob ham bor. Xususan, u chor Rusiyasi ma’muriyatining Turkistondagi boshqaruv usulini qattiq tanqid qilish bilan birga, mahalliy aholining ilmsiz va harakatsiz qolayotganini ham nadomat bilan qayd etadi. Biroq u Samarqandda tanishgan Mahmudxo‘ja Behbudiyni “o‘zbeklarning qahramoni” sifatida ehtirom bilan tilga oladi. Ibrohim afandi 1909-yili Tokioda shu mavzuda bir qancha nutqlar ham so‘zladi. Ana shu ma’ruzalarning ayrimlari yapon tiliga ham tarjima qilingan. Darvoqe, ushbu ma’ruza-maqola “Oh, Turkiston!” deb nomlanadi.

– O‘zbekistonga bu galgi safaringiz qanday kechdi?

– Juda sermazmun va samarali bo‘ldi. Kuni kecha “Jadid” gazetasi tahririyatida mehmon bo‘ldik. O‘zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan shunday gazeta tashkil qilinganidan xursand bo‘ldim. Kinematografiya agentligida kino ustalari bilan jadid adiblariga bag‘ishlangan filmlar yaratish xususida fikr almashdik.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida o‘tkazilgan “Jadidlik harakati: talqini va muammolari” mavzusidagi xalqaro anjumanda ham qatnashib, “Yaponiyada jadidshunoslik” degan mavzuda ma’lumotlar taqdim etdim. Shu kuni Behbudiy va uning “Oyina” jurnali bibliografiyasi, Fitrat va uning “Munozara” asari, shuningdek, 1922-yili ikkitagina soni bosilgan “Haqiqat” jurnali va boshqa manbalar xususida ma’ruza qildim. Darvoqe, kelgusi yil bahorda Tokioda aynan jadidlik harakatiga oid xalqaro ilmiy anjumanni Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlash niyatimiz bor.

– Mazmunli suhbatingiz uchun katta rahmat.

Bahodir KARIMOV
suhbatlashdi.



XOTIRA AZIZ



QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Shamsiddin Badriddinov – 1897-yili Qozon guberniyasi Maminsk rayonida tug‘ilgan. 1913-yili Ahmadbek hoji Temurbekov qo‘lida ishlay boshlagan. Keyinchalik mahsulot omborida tikuvchi, mudir yordamchisi bo‘lib xizmat qilgan. 1919-yili partiyaga o‘tgan, qizil gvardiyachilar safida bo‘lib, Jalolobodda “quloq”lar qo‘zg‘olonini bostirishda qatnashgan, musulmon otliq polki harbiy qo‘mondoni darajasiga ko‘tarilgan. Andijon uyezdi militsiyasining siyosiy bo‘limi rahbari, 1925–1927-yillari oblast sudining a’zosi, 1927-yildan 1929-yil boshigacha okrug sudining raisi o‘rinbosari, shuningdek, Farg‘ona okrugi prokurori, O‘zbekiston SSR Oliy sudi prokurori yordamchisi, so‘ngra O‘zbekiston SSR Oliy sudi prokurori vazifalarida mehnat qilgan. Shamsiddin Badriddinovga “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, milliy istiqlolchilarga xayrixoh bo‘lganlik, ularni qurol-yarog‘ bilan ta’minlaganlik, o‘z lavozimini suiiste’mol qilganlik kabi ayblar qo‘yilib, O‘zSSR Oliy sudi prokurori lavozimida ishlayotgan vaqti – 1932-yil may oyida hibsga olishadi. Shamsiddin Aliyevich Badriddinovga nisbatan e’lon qilingan otuv hukmi keyinroq 10 yilga Rossiyaning Sibir o‘lkasiga surgun qilish bilan almashtirilgan. 1972-yil 20-aprelda SSSR Oliy sudining qarori bilan Shamsiddin Badriddinov oqlangan.

Anqaboy Xudoybaxtov – 1905-yili Samarqandda tug‘ilgan. 1916-yilda ota-onasi vafot etadi. 1918-yilgacha turli xo‘jaliklarda batraklik qilib kun ko‘radi. 1918–1920-yillarda Jomboydagi bolalar yetimxonasiga topshirib yuboriladi.

1920-yildan 1922-yilgacha Samarqand maorif institutida, so‘ngra Toshkentdagi Lenin nomidagi kommunistik universitetda o‘qigan. 1924-1925-yillarda Samarqanddagi “Zarafshon” gazetasi mas’ul muharrir o‘rinbosari, ayni vaqtda komsomol gazetasiga muharrirlik qilgan. 1925-yili partiyaga kirgan. 1925-1928-yillar davomida Moskvada jurnalistika yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oladi. O‘sha paytlarda xizmat safarida bo‘lgan jadidlik harakatining taniqli vakillari jamoasida bo‘lib, ma’rifatparvarlar bilan yaqindan aloqada bo‘lgan. Moskvadan qaytib kelgach “Zarafshon” gazetasi mas’ul muharriri vazifasida ish boshlaydi. 1929-1930-yillarda Respublika kasaba soyuzi organi “Ishchi” gazetasi muharriri, 1930–1933-yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti partiya nashriyoti bosh muharriri, shuningdek, matbaachilar uyushmasi raisi sifatida faoliyat yuritgan. 1936-yildan Respublika radio komiteti raisi bo‘lgan. 1937-yil 1-iyuldan radiokomitet raisligidan ozod qilingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida Anqaboy Xudoybaxtov otuvga hukm qilingan, hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

A’zam Ayupov – 1904-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. U 1935-yili rus tilida bitilgan o‘z tarjimai xolida shunday yozgan: “...1919-yilgacha quyi – o‘rta maktabda (7 yillik) o‘qiganman, 1921-yilga qadar turli kurslarda o‘qish bilan birga ishlaganman, 1919-yildan 1920-yilgacha “Turon” kutubxonasida kutubxonachi, undan so‘ng “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazetalari tahririyatida va hozir “Qizil O‘zbekiston” gazetasida ishlamoqdaman. Mazkur redaksiyalarda adabiy xodim, korrektor, bo‘lim mudiri, mas’ul kotib o‘rinbosari, mas’ul kotib sifatida faoliyat ko‘rsatganman. Hozirgi vaqtda “Qizil O‘zbekiston” redaksiyasida mas’ul kotib va “Guliston” jurnalida muharrir o‘rinbosari vazifasidaman”.


A’zam Ayupov “Yer yuzi” jurnali mas’ul kotibi, “Qizil O‘zbekiston”, “Pravda vostoka” redaksiyasi xodimlari kasaba soyuzi raisi bo‘lgan. U rus, turk, tatar tillarni bilgan. Aksilinqilobiy harakatga mansublikda ayblanib, 1938-yil 5-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan otuvga hukm etilgan.

Komiljon Alimov – 1903-yili Toshkentda tug‘ilgan. 1910-yili tatar maktabida, keyinchalik rus-tuzem maktabida o‘qigan. Oilaviy sharoiti og‘irligi sabab o‘qishni tashlab, 1915-yilgacha polkovnik Shonmov qo‘lida xizmatda bo‘lgan. Fevral inqilobigacha pivo zavodida ishlagan, do‘konda farroshlik qilgan. “To‘dalar” nomli yoshlarning milliy sotsialistik guruhiga kirgan. 1919-yili Toshkent eski shahar oshpazlar soyuzining kotibi va raisi bo‘lgan. 1921-yili Moskvada Sharq mamlakatlari kommunistik universitetida (KUVT) tahsil olgan. Moskvada o‘qiyotgan o‘zbekistonlik talabalar komsomol tashkilotiga rahbarlik qilgan. Turkiston Respublikasi, Toshkent, Samarqand oblastlari komsomol tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. 1924-yili Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti matbuot bo‘limi mudiri bo‘lib ishlagan. O‘sha yili Moskvadagi jurnalistika institutiga o‘qishga qabul qilingan. Tahsilni tugatgach O‘zbekistondagi gazetalarda muharrirlik qila boshlagan. 1926-yili Butuno‘zbek partiya tashkilotining 2-qurultoyiga, 1925-yil dekabrida Moskvada bo‘lib o‘tgan VKP(b) XIV syezdiga vakil etib saylangan. U O‘zbekiston davlat nashriyotiga, Toshkent Eski shahar sovetiga, VKP(b) Markaziy Komiteti O‘rta Osiyo byurosi matbuot bo‘limi kollegiyasiga a’zo bo‘lgan. 1926-yili bir vaqtning o‘zida 2 ta gazeta va 3 ta jurnalga muharrirlik qilgan. U jurnalistika bo‘yicha respublikada tanilgan nufuzli rahbar sifatida qadrlangan. Ammo aksilinqilobiy harakatda ayblanib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil oktyabrdagi yig‘ilishida otuvga hukm qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

AYOZ, CHORIG‘INGNI UNUTMA!



MAQBUL TOSHOTAR...

Qadim rivoyatlarda aytilishicha, Ayoz ismli bir qulga Sultonning mehri tushib, unga juda katta ishonch bildiradi. Hatto Ayozni vazir etib tayinlaydi.

Besh-olti kun saroy a’yonlaridan biri: “Ayoz ketadi, uyiga borib yotadi. Buni bir poylay-chi, uyida nima ish qilar ekan”, deb o‘ylab, uni kuzatibdi.

Ayoz uyiga borgandan keyin, vazirlik libosini avaylab yechib, sandiqqa solib, sholi poxolga chalqancha yotibdi, qoziqqa ilib qo‘ygan eski chorig‘iga qarab naql o‘qibdi:

“Ey, Ayoz, vazir bo‘ldim deb, o‘tgan kuningni unutma, eski chorig‘ingni quritma”.

Kitob javonimda sovetlar davrida chop etilgan “O‘zbekiston SSR tarixi” kitobi bor. Yaqinda uning 1-jildi, birinchi kitobining 7-bobida jadidlar haqida bayon qilingan fikrlarni o‘qiy turib, bugungi ahvolimiz haqida o‘yladim.

“...1905–1907-yillardagi revolyutsiyada Rossiyada juda katta kuch ekanligini ko‘rsatgan ishchilar harakati va uning mazlum millatlar milliy-ozodlik kurashining rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’siri Turkistondagi milliy burjuaziyani va burjua intellegensiyasini qattiq cho‘chitdi va dastlabki vaqtdanoq ularni reaksiya lageriga uloqtirib tashladi. Mahalliy milliy burjuaziya kontrrevolyutsion kuch bo‘lib chiqdi: shuni aytish mumkinki, mahalliy milliy burjuaziya dunyoga kelgan kunidan boshlaboq O‘rta Osiyo xalqlarining milliy harakatida hech qachon progressiv, obyektiv-revolyutsion rol o‘ynamadi.

Reaksion panturkizm va panislomizm ideologiyasi o‘zbek burjuaziyasining g‘oyaviy quroli bo‘ldi.

Turkistonda panturkizm va panislomizm ideologiyasini ifoda qiluvchilar jadidlar edi.

Jadidizm milliy burjuaziyaning bozor va bozor munosabatlari doirasida rus imperialistik burjuaziyasiga qarshi boshlanib ketgan raqobat kurashi zaminida maydonga chiqdi. Jadidlik harakati tezda siyosiy tus ola boshladi...”

Bu kitob o‘sha vaqtdagi O‘zSSR Fanlar akademiyasi tomonidan tayyorlangan va 1957-yilda ko‘p nusxada chop qilinib, maktab darsliklari, oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlariga kiritilishi uchun asosiy zuvala vazifasini bajargan. Afsuski, ushbu to‘qima-soxtalashtirilgan tarix necha avlod ongini zaharladi, millatni ma’rifatli, ma’naviyatli qilib tarbiyalash, uning kelajagini istiqlolda deb orzu qilgan jadid bobolarimizga “xalq dushmani” tamg‘asini bosdi.

Yuqoridagi iqtibosda keltirilgan “turkparast”, “islomparast” degan atamalar keyingi barcha boblarda jadidlarga yopishtiriladi. Badanida turkiy qon oqayotgan, yetmish nasli islom diniga e’tiqod qiladigan millat bolalariga “turk” va “islom” so‘zlari olabo‘ji qilib ko‘rsatiladi. Bu ikki so‘z hech ikkilanmay “imperializm”, “burjua millatchiligi” atamalariga tenglashtiriladi.

“Sinfiy kurash”ni asosiy qurol qilib olgan bolsheviklar olabo‘ji sifatida ko‘rsatayotgan burjuaziya ishlab chiqaruvchilar, ya’ni hozirgi til bilan aytganda davrining tadbirkorlari edi, xolos.

O‘qiymiz: ”Jadidlar milliy ozodlik harakatiga rahbarlikni o‘z qo‘llariga olib, bu harakatning revolyutsion mazmunini yo‘q qilib tashlash va uni burjuaziyaning sinfiy manfaatlarini amalga oshirish uchun kurashga aylantirmoqchi bo‘ldilar.

Jadidlarning katta bir qismi “vatan” imperializmi bilan chet el imperializmi o‘rtasida ikkilanib qolsalar-da, lekin Turkistonni Rossiyadan ajratib olish ideyasini ko‘proq tilga oldi”.

Ushbu iqtibosda vatan so‘zi qo‘shtirnoqqa olingani qiziq. Mualliflar, go‘yoki sotsializmdan boshqa birorta tuzumda vatan bo‘lmaydi, demoqchi bo‘ladilar, shekilli.

Kommunist tarixchilar o‘sha davrdagi asl haqiqatni qanchalik xaspo‘shlamasin, yolg‘onni qanchalik to‘qib-bichmasin, “jadidlar milliy ozodlik harakatiga rahbarlikni o‘z qo‘llariga olishgani”ni tan olishga majbur bo‘ladi, ammo yurtni ozod qilish g‘oyasini bayroq qilganlarni adashganlikda, ya’ni “bu harakatning revolyutsion mazmunini yo‘q qilib tashlashganlikda” ayblashadi. Ular nazdida faqatgina revolyutsiya ozodlikka olib borarmish, bu ishga faqat bir hovuch bolsheviklar qodir va haqli emishlar. (Yurtimizning 1991-yilda mustaqil bo‘lishiga hech qanday revolyutsiyaning aloqasi yo‘qligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan avlod vakillari bu jumlalarni o‘qib, miyig‘ida kulib qo‘yishi aniq). Ushbu jumla yakunida jadidlar “Turkistonni Rossiyadan ajratib olish ideyasini ko‘proq tilga oldi”, deyilgani jasur bobolarimizga o‘sha vaqtda qo‘yilgan siyosiy ayb bo‘lsa, bugun ular uchun sharafdir.

Ushbu ko‘ptomli kitobda jadidlarning ma’naviy, ma’rifiy faoliyatiga ham ko‘p bora asossiz toshlar otilganiga ko‘zimiz tushadi. Ayniqsa, bu aybnomalar jadidlar tashkil qilgan vaqtli nashrlarga “feodal-klerikal”, ular yaratgan asarlarni “tarixni ideallashtirish” yoki el bolalari bilim olishlarini istab ochgan maktablarini hamda chet ellarda yoshlarni o‘qitish uchun yuborganliklarini (aniq sonlari keltiriladi) “turkparastlik ruhida tarbiyalashga intilish”, degan tamg‘a bilan “siylanganlik”da ko‘rinadi.

Yana o‘qiymiz: *“...Jadidlar darhol teatrga ideologik kurashning o‘tkir quroli deb baho berdilar. Ular 1911-yildan boshlab milliy burjuaziya uchun teatrning foydali ekanini isbotlovchi maqolalarni muntazam ravishda vaqtli matbuotda chiqarib turdilar. Shu bilan birga ular o‘zbek tilida dramatik asarlar yaratishga ham urinib ko‘rdilar.*

Bu sohada Turkistondagi jadidlar harakatining rahbarlaridan biri – Behbudiy aktiv ish olib boradi. U “Padarkush” pyesasini yozadi va bu pyesa avtor va uning hamfikrlarining tashabbusi bilan 1914-1915-yillarda Turkistonning deyarlik hamma shaharlarida sahnaga qo‘yiladi. O‘zbeklar o‘z intelligensiyasini boy sinflarning vakillaridan yaratishi kerak, degan fikr – pyesaning asosiy siyosiy g‘oyasidir. Bu pyesaning targ‘ib qilinishicha, o‘zbek ziyolilari Fransiya, Yevropa va Turkiyada ta’lim olishlari kerak: bu esa, bir tomondan, ularning xalqni islom ruhida tarbiyalashi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mustamlaka apparatining idoralarida ishlaydigan xodim bo‘lib chiqishlarini ta’minlar edi. Buni jadidlar “millatni saqlab qolish”ning eng qulay yo‘li, deb bildilar.

Jadid teatri milliy madaniyat taraqqiyoti tarixida hech qanday progressiv rol o‘ynamadi, chunki u o‘zining butun mazmuni bilan O‘rta Osiyo xalqlarining ozodlik harakatiga qarshi qaratilgan edi. O‘z taraqqiyotida bu teatr boshqa xalqlarning ilg‘or madaniyatiga emas, balki panturkizm adabiyotining reaksion g‘oyalariga tayangan”.

Ushbu iqtibosni o‘qib, yoqa ushlaysan kishi. Nahotki, “o‘zbek tilida dramatik asar yaratishga urinish” ayb bo‘lsa? Behbudiyning “Padarkush” asari ikki yil davomida sahnalarda takror va takror namoyish qilinganki, uni tomoshabin – xalq olqishlab kutib olgan. O‘zbek ziyolilari Yevropa, Fransiya (go‘yoki Fransiya Yevropaga kirmaydigandek!) yoki Turkiyada ta’lim olsalar, ular mustamlaka idoralarida ishlashdan boshqasiga yarashmaydiyu, Chor Rusiyasida ta’lim olsalar, oddiy xalqqa xizmat qiladilarmi? Mantiq qani? (Mustaqillik yillarida minglab yoshlarimiz jahonning eng nufuzli universitetlarida tahsil olib, hozirda yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilishmoqda. Ular orasida vazir darajasiga ko‘tarilganlari ham bor).

Besh yuz varaqli, katta (qizil muqovada!) hajmli kitob mualliflari jadidlarga nisbatan haqoratli iboralarni mo‘l-ko‘l qo‘llashgan. Bolsheviklarning asosiy dushmani bo‘lgan mensheviklar haqida so‘z ketganida “partiya” so‘zini ishlatishadi-yu, “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar” harakatiga, hech bo‘lmaganda, “firqa”, “harakat” iborasini ham ravo ko‘rishmaydi – “to‘dasi” deb yozishadi. O‘z vaqtida ikki ming nafar a’zosi bo‘lgan “Yosh buxoroliklar” shunchaki to‘da emish-u, Toshkentda atigi uch yuz a’zosi bo‘lgan mensheviklar to‘dasi partiya emish. Adl-u insof shumi, haqiqatni yozishga da’vogar tarixchilar?

Kitobning “O‘zbekistonda 1916-yil qo‘zg‘oloni” bo‘limida podsho Nikolay ikkinchining 1916-yil 25-iyunda chiqargan “Imperiyadagi rus bo‘lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llari qurish uchun olib borilayotgan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida”gi farmonidan so‘ng o‘lkaning barcha joylarida boshlangan norozilik g‘alayonlari haqida gap boradi. Ushbu farmonga binoan Turkistondan 19 yoshdan 31 yoshgacha bo‘lgan jami 250 ming kishi majburiy safarbar qilinishi kerak edi.

Ayni yozda – ekinlar parvarishi (bug‘doy o‘rog‘iga kirishilgan) davrida dalada asqatadigan erkaklarning urush jahannamiga olib ketilishini xalq qabul qilmaydi va oqibatda norozilik harakati boshlanadi. Toshkent, Samarqand, To‘ytepa kabi shaharlarda bo‘lib o‘tgan g‘alayonlar askarlar yordamida bostiriladi. Tinch aholidan yuzlab kishi yarador bo‘ladi, o‘qqa uchadi. Isyonning eng kattasi va shafqatsiz bostirilgani tariximizga “Jizzax qo‘zg‘oloni” nomi bilan kirgan fojiadir. Shaharda norozilik namoyishiga chiqqan aholi ayovsiz qirib tashlanadi, qolganlari shahar tashqarisiga haydab chiqilib, saraton jaziramasida kun bo‘yi tiz cho‘ktirib qo‘yiladi. Bu isyonda o‘n mingdan ortiq tinch aholi qurbon bo‘lgan.

O‘sha vaqtda jadidlar chop qilayotgan vaqtli nashrlarda oq podsho farmoniga norozilik ruhidagi maqolalar ketma-ket chop qilinib turgan va oxir-oqibat zo‘riqishga tushgan imperiya bu farmonini kechiktirishida jadidlarning faolligi katta ahamiyat kasb etgan. Ammo kitobning yuqoridagi bo‘limida g‘alayon vaqtida bevaqt o‘qqa uchganlar uchun jadidlar aybdor, “ular odamlarni aldab, ko‘chalarga chiqarishdi, “millatchilik ruhidagi varaqlar tarqatishdi”, degan ayblovlar (“milliy burjua elementlari”, “millatchi guruhlar” atamalari ko‘p uchraydi) ularga ochiqdan-ochiq to‘nkalgan. Go‘yoki, bu jarayonda “o‘lkadagi bolsheviklar partiyasi a’zolari tinch aholi qoni to‘kilmasligi uchun jon kuydirishgan” emish.

Ushbu kitobdagi yozilmish gaplarga ishonilsa, o‘lkamizda 1911-yildan toki 1920-yilgacha bo‘lgan davrda qay darajada ijobiy o‘zgarish (kitobda bu holat “progressiv” so‘zi orqali ifodalanadi) ro‘y bergan bo‘lsa – bolsheviklarning xizmati, nimadir fojia ro‘y bergan, salbiy holatlar, (“regressiv” degan atama qo‘llaniladi) xatoliklar yuzaga kelgan bo‘lsa – jadidlarning qilmishi emish.

Shu o‘rinda “O‘g‘ri bo‘l, g‘ar bo‘l – insofli bo‘l!” degan otaso‘zimiz darrov esga keladi.

Yostiqdek kitobda o‘lkamizda milliy ong o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatgan jadidlik harakati haqida alohida bo‘lim yo‘q. Davr va sohalar haqida gap ketganida ora-orada kimnidir (nimanidir ham) tanqid qilish, yomonotliq qilish zarur bo‘lib qolganida, ular uzuk-yuluq eslanadi. Faqat bir o‘rinda “milliy dramaturgiyani yaratishga uringani uchun” Behbudiy nomi tilga olinadi, boshqa birorta jadid bobomiz nomi keltirilmaydi. Demak, bundan anglashiladiki, maqsad ularning nomlarini tariximizdan o‘chirib tashlash bo‘lgan.

...Esimda, maktab darsliklarida g‘aroyib ertak bo‘lardi – “Muqbil toshotar”. Muqbil – ijobiy qahramon, mohir mergan. U zerikkanidan ko‘cha boshida o‘tirib, o‘tgan-ketganga tosh otmaydi – tirikchiligini ov orqasidan o‘tkazgan ajdodlarimiz ramzi edi u. Uning adolatliligi, merganligi bolalarga ibrat qilib ko‘rsatilardi.

“O‘zbekiston SSR tarixi” ko‘pjildli kitobi mualliflarini erinmasdan sanadim – oltmish nafarga yaqin. Ular orasida sohaning akademig-u professorlari anchagina...

Jadid bobolarimiz 1930-yillar oxiridagi “tozalashlar”da qatag‘on tegirmoniga tushib, yo‘q bo‘lib ketgan. Oradan yigirma yil o‘tgan bo‘lsa-da, jasur ajdodlarimiz xotirasiga tosh otish, ularni yomonotliqqa chiqarish, faoliyatiga boriki qora bo‘yoqlarni chaplash tizimli davom etgan. Maqsad – ularning muqaddas nomlarini tamomila tarixdan o‘chirish! Buning uchun sho‘ro dohiylari munosib Muqbil... uzr, Maqbul toshotarlarni topgan, tarbiyalagan, xizmatlari evaziga ularga unvon-u nishonlar bergan...

Yuqorida Ayoz haqidagi rivoyatdan parchani bejiz keltirmadik. O‘z davrida zamona zayliga yurib, shaxsiy manfaatlarini millatdan, el-u yurtdan ustun qo‘ygan, ildizidan ayrilib, oyog‘i yerdan uzilgan ayrim vallamatlarga ibrat bo‘lsa zora, dedik.

Keyingi yillarda yurtimizda jadidlik harakati namoyandalarining pok nomlari oqlanib, ularning keng ko‘lamli savobli ishlari izchil tahlil qilinmoqda. Afsuski, o‘sha Maqbul toshotarlarning izdoshlari ozmi-ko‘pmi borligi, ular pana-pastqamda qo‘yni to‘la tosh bilan payt poylab turishgani (ming‘irlab yurganlari) uchun ogohlik ma’nosida ushbu bitiklarni qoraladim.

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

– Ko‘zingizga qaramaysizmi!
– O‘zingiz-ku, kelib urilgan!
– Ko‘chaning o‘rtasida turasizmi?!
– Menga qarang. Ismingiz nima?
– “Jorj”. Nima edi?
– Mening bir do‘stim bo‘lar edi, Jo‘raqul degan. Shunga o‘xshab ketar ekansiz.
– To‘xta-to‘xta. Umaralimisan?!



ISMIMIZDAN NEGA UYALAMIZ?!

Said Ahmad, Alp Jamol, Ergash Karimov, Elbek Musayev kabi ijodkor adiblarimiz jamiyat hayotida bo‘ladigan ishlarni 40-50 yil oldindan ko‘ra bilgan nazarimda. Bo‘lmasa, hammamizga ma’lum va qancha ko‘rsak qayta-qayta ko‘radiganimiz “Uchrashuv” nomli hajviy filmlar jamlanmasidagi yuqoridagi kabi voqelik orqali bugungi kunda urchiydigan ijtimoiy illatlarni go‘zal yumor tarzida bayon etmas edilar.

Ijtimoiy taraqqiyot davomida mavjud sohalarda yutuqlarga erishgan, ilm-fanga qo‘shgan hissalariga qarab ayrim shaxslarga ismlarining yoniga “kunya – laqab” berilgan. Bu “kunya – laqab”lar barcha tomonidan tan olingan, e’tirof etilgan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarimizni eslashning o‘zi kifoya.

Bugungi kunda esa xuddiki, odamlarimiz o‘z ismlaridan uyalayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Buni ayrimlarning ismi qolib, odamlar boshqa nom bilan atashlarini xohlayotganliklarida kuzatamiz.

Tadbirdan keyingi suhbatdan:

– Shu rasmlarni menga telegramdan tashlab bera olasizmi?

– Albatta!

– Telegramga “BOTA” deb yozsangiz, mening jarangdor “NIK”(nom)im chiqadi!

– Ismingiz Botir-ku. Botir deb yozsam, chiqmaydimi?

– Yo‘q, meni hamma “BOTA” deb bilishini va shunday chaqirishini istayman.

– Shuni o‘rniga “Bo‘tqa” deb qo‘ymabsizda “NIK”ingizni.

– Nega?

– Yanada jarangdor, hammaga tushunarli va muhimi o‘zbekcha bo‘lardi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zini ko‘rsatish, nom chiqarish uchun ayrim yigit-qizlarimiz ismi qolib turli “NIK”lardan foydalanishmoqda. “mitti.me”, “Dili.me”, “liil”, “Seylisha”, “Sardor gangster”, “Bonamur” va hokazo.

O‘sha mashhur “Uchrashuv”ga qaytsak. Ergash Karimov “Sarimsoqpiyoz” tilidan “...shuncha ishlab “Shaftoli qoqi”, “Burunboy”, “Qizilishton”, “Novcha”, “Ulamasoch”, “Shu-shu domla” kimligini bilmasangiz. Omon bo‘ling-e, omon bo‘ling-e”, deya kesatadi Roza Karimova – “Lampa shisha”ni.

Yuqorida nomlari muayyan “NIK”lar asosida darj etilgan odamlarimizni xalqimiz qanday nomlar bilan atasa...

...Bugun aksariyat yigit-qizlar, ba’zan kattalar ham san’atda yaratilgan go‘zal ijod namunalarini taqlidan qayta jonlantirib, obro‘ qozonishga harakat qilmoqda. Bu jarayon shunchalik urchib ketdiki, oqibatda jamiyatda san’atning “bachkanabozlik”, “tuturuqsizlik”, “betayinlik” kabi ommaviy ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda. Bu jihatlar “iste’dodning yangi ko‘rinishi” sifatida TVdagi ayrim ko‘rsatuvlarda ham aks ettirilmoqda.

Xalq ommasiga taqdim etilayotgan seriallar ham G‘arbga taqlid sifatida ishlanmoqda. Asosan oilaviy muammolarga bag‘ishlangan seriallarimizda er-xotin munosabatlarida ochiqlik, oshkoralik birinchi darajaga olib chiqilayotir. Erning jazmani bor, xotinning xushtori. Shu sababdan 16+, 18+ kabi belgilar ko‘payib ketdi.

Oila davrasida, bola-chaqa bilan televizor ko‘rishga ham xijolat bo‘lasan. Biror bir sharmsiz holat paydo bo‘lib qolmasin, deb.

Eng ajablanarli tomoni shuki, o‘z ismidan uyalib, turli “NIKNEYM”lar ortiga berkingan aksar yoshlar omma oldida tuturiqsiz qiliqlar qilishdan hayo qilishmayapti.

Bahrom BOYMURODOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi
Facebook

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 1-yanvar, chorshanba kuni chiqadi.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 823
Lotin yozuvidagi adadi – 11 902
Media kuzatuvchilar – 19 185
Buyurtma: G – 1240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 22:00
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz